2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 197 (1796), 2026-yil 23-sentabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

22-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidentini tavallud kuni bilan samimiy qutlab, unga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va davlatchilik faoliyatida yangi muvaffaqiyatlar tiladi.

O‘zbekiston Prezidenti Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga o‘zining samimiy salomini aytdi. Turkmaniston Prezidenti, o‘z navbatida, davlatimiz rahbariga Turkman xalqining milliy yetakchisi nomidan eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbat davomida O‘zbekiston —Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Tovar ayirboshlash hajmi barqaror o‘sib borayotgani, energetika, transport va boshqa muhim sohalarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

“Shovot — Toshhovuz” qo‘shma savdo zonasining samarali faoliyatini ta’minlash muhimligi ta’kidlandi.

Shuningdek, mintaqaviy kun tartibiga oid ayrim masalalar, jumladan, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi hamda Turkmanistonda bo‘lib o‘tadigan MDH sammitiga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan fikr almashildi.

Muloqot yakunida mamlakatimiz yetakchisi birodar Turkmaniston Prezidenti va xalqini yaqin kunlarda nishonlanadigan milliy bayram — Mustaqillik kuni bilan tabrikladi.

O‘zA

YOQILG‘I-ENERGETIKA TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH REJALARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev elektr energetikasini rivojlantirish istiqbollari va yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi loyihalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Energetika tizimi iqtisodiy o‘sish, investitsiya faolligi va aholi farovonligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda sohaga xususiy sektor va xorijiy investorlar keng jalb qilinib, yangi generatsiya quvvatlarini barpo etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va tarmoqlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirildi. Bu boradagi islohotlar natijasida quyosh va shamol elektr stansiyalarining umumiy quvvati 6,3 gigavattdan oshdi. Gidroelektr stansiyalar soni 100 tadan ortib, ularning umumiy quvvati 2,5 gigavattga yaqinlashdi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari kengayishi hisobiga har yili katta miqdorda tabiiy gaz tejalmoqda.

2030-yilga borib, mamlakat iqtisodiyoti hajmini 300 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan, aholi soni esa 41 milliondan ortishi kutilmoqda. Sanoatning o‘zida elektr energiyasi iste’moli 2030-yilgacha 38 milliard kilovatt-soatdan 53,5 milliard kilovatt-soatgacha o‘sishi prognoz qilinmoqda. Elektromobillar va data-markazlar rivojlanishi ham tizimga qo‘shimcha yuklama beradi.

Shu bois, generatsiya quvvatlarini talabdan oldin rivojlantirish, elektr tarmoqlarining o‘tkazuvchanligini oshirish va yetarli zaxira quvvatlarini shakllantirish zarurligi qayd etildi.

Rejaga ko‘ra, 2030-yilga borib, mamlakatdagi generatsiya quvvatlari 46,1 gigavattga yetkazilib, yiliga qariyb 129 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. 2035-yilda esa quvvatlarni 57,2 gigavattga, yillik generatsiyani 154,7 milliard kilovatt-soatga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Taqdimotda elektr energiyasi iste’molining turli o‘sish senariylari ham ko‘rib chiqildi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, iste’mol mo‘tadil o‘sganda 2030-yilgacha generatsiya va talab o‘rtasida yetarli muvozanat saqlanadi. Biroq iqtisodiyot, sanoat, elektr transporti va raqamli infratuzilma tez sur’atlarda rivojlangan taqdirda qo‘shimcha generatsiya quvvatlariga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari energetika sohasidagi rejalar iqtisodiyotning yuqori o‘sish sur’atlarini hisobga olgan holda shakllantirilishi, tizimda doimo yetarli zaxira quvvati bo‘lishi shartligini ta’kidladi.

Shundan kelib chiqib, qo‘shimcha shamol elektr stansiyalari va energiya saqlash tizimlarini barpo etish, amalga oshirilayotgan quyosh va shamol energetikasi loyihalarini jadallashtirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Davomi 2-betda

MA’MURIY ODIL SUDLOVNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH VAZIFALARI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ma’muriy odil sudlovni yangi bosqichga olib chiqish istiqbollariga bag‘ishlangan taqdimot bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yil 1-iyuldan ma’muriy sudlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. Ushbu tizim davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan sud nazoratini kuchaytirish, fuqarolar hamda tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilmoqda.

O‘tgan davr mobaynida ma’muriy sudlar tomonidan 150 mingga yaqin ish ko‘rib chiqilib, 70 mingdan ortiq holatda davlat organlarining noqonuniy qarorlari bekor qilingan.

Shuningdek, mansabdor shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan yuqori turuvchi yoki boshqa vakolatli organlarga 27 mingga yaqin xususiy ajrim chiqarilgan.

Bu natijalar ma’muriy sudlar faoliyati “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan ustuvor tamoyil asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Ushbu tizim davlat organlari faoliyatida qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolar va tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini samarali tiklashda muhim o‘rin tutmoqda.

Taqdimotda sohani rivojlantirishning navbatdagi bosqichida ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy talablar asosida 15 ga yaqin yangi huquqiy institutni joriy etish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Yangi yondashuvlar, eng avvalo, fuqarolarning buzilgan huquqlarini amalda tiklash, davlat organlari faoliyati ustidan sud nazoratini kuchaytirish hamda ma’muriy sudlarning vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Hozirgi tartibga ko‘ra, fuqarolar va tadbirkorlar o‘zlarining buzilgan huquqlarini tiklash uchun ma’muriy sudlarga faqat bitta shaklda murojaat qilish imkoniga ega. Taklif etilayotgan islohotlar natijasida esa fuqarolarga huquqi buzilishidan oldin uning himoyasini proaktiv tarzda ta’minlash uchun sharoit yaratiladi. Bunda sudga murojaat qilishning to‘rt turdagi da’vo shaklini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, sudga murojaat qilish uchun belgilangan amaldagi olti oylik muddat qayta ko‘rib chiqiladi. Fuqarolarga davlat organi tomonidan qonunbuzilish holati sodir etilganini tan olish yuzasidan sudga muddatsiz murojaat qilish imkoniyatini yaratish taklif etildi.

Amalda mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjati bilan fuqaroning huquqi buzilgan taqdirda bunday hujjat ustidan ma’muriy sudga shikoyat qilish imkoniyati mavjud emas.

Endilikda fuqarolarga mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari ustidan bevosita sudga shikoyat qilish huquqini berish taklif etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasiga muvofiq, davlat organlari tomonidan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak.

Shundan kelib chiqib, ma’muriy sudlarning vakolatlarini kengaytirish, ularga fuqarolar va tadbirkorlarga ta’sir choralarini qo‘llashda davlat organlari diskretsion vakolatlardan qonuniy va asosli foydalanganini tekshirish vazifasini yuklash nazarda tutilmoqda.

Sud qarorlarining so‘zsiz ijrosini ta’minlashga qaratilgan ta’sirchan choralar ham nazarda tutilmoqda. Unga ko‘ra, davlat organining mansabdor shaxsiga sud qarorini ijro etmagani uchun jarima qo‘llanilganidan keyin ham qaror takroran ijro etilmasa, sud qonuniy chora ko‘rish uchun prokurorga xabar beradi.

Prezidentimiz taklif etilayotgan huquqiy institutlar inson huquqlari qo‘pol buzilgan hollarda ularni sud orqali samarali tiklash, Konstitutsiyada belgilangan mutanosiblik prinsipining amalda to‘laqonli ishlashini ta’minlash, davlat idoralari mas’uliyatini oshirish hamda sud qarorlarining muqarrar ijrosiga xizmat qilishi kerakligini ta’kidlab, bildirilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatladi.

O‘zA

OROLBO‘YI AHOLISINING KO‘NGIL IZHORI

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifidan keyingi o‘ylar

Farovonlik xaritasi



Ikki kunlik tashrif davomidagi voqealar, uchrashuv va muloqotlardan keyin har bir jarayonni qayta ko‘z o‘ngimdan o‘tkazar ekanman, O‘zbekiston Qahramoni, shoir Ibroyim Yusupov qoraqalpoq xalqiga “Yuragi qovurg‘asidan ko‘rinib turadigan xalq”, deya ta’rif berganida naqadar haq bo‘lganiga yana bir bor ishonch qildim.

Chunki shu ikki kun mobaynida faqat davlatimiz rahbari tashrif buyurgan korxona-tashkilotlar, uchrashuv yoki muloqotlarda ishtirok etgan odamlargina emas, balki butun hudud aholisining qalbida mehr balqidi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi Ko‘chalarda, ovul va mahallalarda, bozorlar, boringki, ikki odamning boshi birikkan joyda Prezidentimiz tashrifidan mamnunlik, quvonch, g‘urur va iftixor aks etdi.

Davlatimiz rahbari Nukus shahridagi ko‘chalardan biriga tashrif buyurganida u yerda istiqomat qiluvchi odamlarning “Sizni yaxshi ko‘ramiz, hurmatli Prezident”, deya baralla aytgan dil izhorlari ijtimoiy tarmoqlarda xo‘b aylandi. Qaysi hududga bormasin, butun xalq davlatimiz rahbarini qo‘llab-quvvatlab, to‘lqin kabi to‘lib-toshib yonida birga yurganday bo‘ldi.

Davomi 3-betda

ENG KUCHLI USTOZLAR ENG YAXSHISIGA MUNOSIB

Mamlakatimizda ilk bor umumiy sovrin jamg‘armasi 128 MILLIARD so‘mdan ziyod bo‘lgan TANLOV G‘OLIBLARI ANIQLANDI



2024-yil 30-sentabrda Prezidentimiz Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutiga tashrif buyurib, u yerdagi yangilangan sharoitlar bilan tanishgan edi. Tashrif doirasida o‘qituvchi-murabbiylar bilan samimiy muloqot qilindi.

Suhbat chog‘ida barcha sohalardagi ulkan maqsadlarni amalga oshirish va taraqqiyotni davom ettirish bevosita yosh avlodning bilim va tafakkuriga, tarbiyasi hamda vatanparvarligiga bog‘liq ekani aytilgandi. Buning uchun esa o‘qituvchilar huquqiy, ijtimoiy va moliyaviy jihatdan himoya qilingan hamda yetarlicha ta’minlangan bo‘lishi kerakligi alohida ta’kidlangan edi.

Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, ta’lim-tarbiya sifati bilan belgilanar ekan, bu jarayonda kasbiga sadoqatli, yosh avlod qalbiga ilm va ma’rifat urug‘ini fidokorona qadayotgan ustozlar oldingi safga chiqadi. Ularning mehnatini munosib qadrlash va kasbiy salohiyatini yanada yuksaltirish esa davlatning ta’lim siyosatida alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy yilda ilk bor butunlay yangicha yondashuv asosida o‘tkazilgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovi ana shu e’tiborning amaliy ifodasidir.

Davomi 5-betda

“VATANNI O‘CHIRIB BO‘LMAYDI, BOLAM...”

Esse



Shu yilning yozida ijodiy jamoa bilan Nukus shahriga yo‘l oldik. Iyulning jazirama issig‘i poyezddagi 18 soatli yo‘l mashaqqatida ham, tag‘in safar davomida ham bizga hamroh bo‘ldi. Manzilga yetib borganimizdan keyin katta jamoa alohida-alohida guruhlarga ajratildi. Borar manzil ko‘p — hammasiga ulgurish kerak. Biz avvaliga universitet va teatrda tashkil etilgan ijodiy uchrashuvlarda qatnashdik. Keyingi manzilimiz esa shahardagi harbiy qism edi. Bu xabarni eshitishim bilanoq beixtiyor xursand bo‘lib ketdim...

Davomi 6-betda

2026-yil 23-sentabr, 197-son

O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy zamini bir kunda vujudga kelgan emas. Koreya Respublikasi Osiyo-Tinch okeani mintaqasida mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan davlat sifatida tarixga kirdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news | yuz.uz_news

YOQILG‘I-ENERGETIKA TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH REJALARI KO‘RIB CHIQILDI

Boshlanishi 1-betda

Ayni paytda iqtisodiy samaradorligi past, moliyalashtirish manbasi aniq bo‘lmagan yoki uzoq vaqtdan buyon kechikayotgan ayrim loyihalarni qayta ko‘rib chiqish zarurligi qayd etildi. Yangi quvvatlarni tanlashda faqat ularning hajmi emas, balki elektr energiyasi tannarxi, tarmoqqa ulanish imkoniyati, energiya saqlash tizimlari bilan uyg‘unligi va umumiy energobalansga ta’siri asosiy mezon bo‘lishi belgilandi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi ortib borgan sari energiya saqlash tizimlarining ahamiyati ham oshmoqda.

Bunday tizimlar kunduzi quyosh va shamol stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini to‘plab, uni kechki yuqori yuklama vaqtida tarmoqqa uzatish imkonini beradi. Bu an’anaviy elektr stansiyalarida qo‘shimcha gaz yoqish zaruratini kamaytirib, butun tizim barqarorligini oshiradi.

Hozir energiya saqlash tizimlari bo‘yicha umumiy quvvati 4,2 gigavatt bo‘lgan 26 ta loyiha shakllantirilgan. Ulardan 17 tasi amalga oshirish bosqichida. 2030-yilgacha ayni yo‘nalishda qo‘shimcha yangi loyihalarni shakllantirish taklif qilindi.

Prezidentimiz generatsiya quvvatlarini ko‘paytirish bilan birga ularni iste’molchilarga yetkazib beradigan magistral tarmoqlar va podstansiyalarni ham oldindan barpo etish zarurligini ko‘rsatib o‘tdi.

2030-yilga qadar 9 ta 220 kilovoltli va 7 ta 500 kilovoltli yangi podstansiya qurish, qariyb 5 ming kilometr yangi elektr uzatish tarmoqlarini barpo etish rejalashtirilgan. Bu yangi elektr stansiyalarini energotizimga ulash, hududlar o‘rtasida quvvat almashinuvini kengaytirish imkonini beradi.

Xususan, 2027-2029-yillarda bir qator strategik 500 kilovoltli elektr uzatish tarmoqlari va yangi podstansiyalarni ishga tushirish ko‘zda tutilgan. Taqdimotda ularning qurilish holati, moliyalashtirish masalalari va mavjud kechikishlarni bartaraf etish choralari alohida ko‘rib chiqildi.

Qoraqalpog‘istonda qayta tiklanuvchi energiyaning katta salohiyatidan foydalangan holda raqamli iqtisodiyot uchun yangi infratuzilma yaratish masalasi ham muhokama qilindi.

Hududda istiqbolli shamol elektr stansiyalarini 1 gigavatt quvvatli data-markazlar bilan bog‘lash, buning uchun yangi 220 kilovoltli podstansiya va elektr uzatish tarmoqlarini qurish taklif etildi. Mazkur infratuzilma yangi data-markazlarni energotizimga integratsiya qilish, yuqori texnologiyali investitsiyalarni jalb etish va hududning mavjud energetik salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Taqdimotda sohadagi investitsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish tizimini tubdan o‘zgartirish bo‘yicha takliflarga alohida e’tibor qaratildi.

Amalda ko‘p hollarda loyiha investor tashabbusidan boshlanadi. Yer maydoni, tarmoqqa ulanish, texnik shartlar, tarif va investitsiya bitimlari turli idoralar bilan alohida kelishiladi. Bu esa jarayonlarning cho‘zilishi, idoralar funksiyalarining takrorlanishi va ayrim loyihalarning tizim ehtiyoji bilan yetarlicha bog‘lanmasligiga olib kelmoqda.

Shu bois, yangi boshqaruv modeli taklif qilindi.

Endilikda energetika loyihalari, eng avvalo, iqtisodiyot, aholi va hududlarning istiqboldagi ehtiyojidan kelib chiqib shakllantiriladi. Avval talab aniqlanadi, keyin zarur generatsiya va infratuzilma quvvatlari rejalashtiriladi. Yer maydoni, tarmoqqa ulanish nuqtasi va texnik yechimlari oldindan tayyor bo‘lgan loyiha shakllantirilib, investor ochiq va raqobatli tanlov asosida aniqlanadi.

Bunda har bir idoraning vazifa va javobgarligi aniq belgilanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi talab prognozini shakllantiradi, Energetika vazirligi strategik rejalashtirish va texnik siyosat uchun javob beradi, Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi bozor munosabatlari va tariflarni tartibga soladi. Investitsiyalar sohasiga mas’ul idoralar investorlarni ochiq tanlov asosida jalb qiladi, mahalliy hokimliklar esa yer va zarur infratuzilma masalalarini hal etadi.

Shuningdek, hududlar va tarmoqlar kesimida energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyojning aniq prognozini shakllantirish, shu asosda har yili yangilanadigan uch yillik investitsiya rejalarini qabul qilish taklif etildi. Bu generatsiya quvvatlari, elektr tarmoqlari va zarur infratuzilmani o‘zaro muvofiq holda oldindan rejalashtirish imkonini beradi.

Uzoq muddatli istiqbolda esa 2050-yilgacha yoqilg‘i-energetika resurslari bilan ta’minlash konsepsiyasini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Unda milliy resurs salohiyati, demografik va iqtisodiy o‘sish, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi va atom energetikasini rivojlantirish, shuningdek, energetika xavfsizligini ta’minlash masalalari kompleks hisobga olinadi. Konsepsiyani har besh yilda qayta ko‘rib chiqish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari energetikada har bir yangi loyiha iqtisodiyot va aholining uzoq muddatli ehtiyojiga xizmat qilishi, ishlab chiqarish, tarmoq yuklamasi va iste’mol o‘rtasida doimiy muvozanat ta’minlanishi kerakligini ta’kidladi.

Mutasaddilarga amalga oshirilayotgan yirik loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish, kechikayotganlari bo‘yicha investorlar bilan aniq choralar ko‘rish, generatsiya quvvatlari bilan elektr tarmoqlarini mutanosib rivojlantirish, energiya saqlash tizimlarini kengaytirish hamda sohada yangi rejalashtirish va boshqaruv modelini joriy etish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

O‘zA

Munosabat

O‘ZBEK VA KOREYS XALQLARI DO‘STLIGINING IJTIMOIY ILDIZLARI

Shu yil 13-16-sentabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Seul shahrida ilk bor o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo — Koreya” sammiti xalqaro hamjamiyat e’tiborini o‘ziga tortdi. Tashrif davomida imzolangan hujjatlar, O‘zbekiston — Koreya biznes forumi, qariyb 12 milliard dollarlik loyihalar portfeli, kritik minerallar, transport, sun’iy intellekt va sog‘liqni saqlash sohalaridagi kelishuvlar, shuningdek, Seul va Koreyaning qator shaharlarida o‘tkazilgan “O‘zbek madaniyati kunlari” bir qarashda sof diplomatik va iqtisodiy xarakterdagi voqealar sifatida ko‘rilishi mumkin.



Muhiddin TESHABOYEV, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent


Biroq davlat miqyosidagi bunday tadbirlarning mohiyatiga chuqurroq nazar tashlansa, ular ortida ancha uzoq davom etgan va bosqichma-bosqich shakllangan ijtimoiy jarayon turganini ko‘ramiz. Diplomatik bitimlar, investitsiya kelishuvlari, ta’limiy va ilmiy hamkorlik dasturlari — bularning barchasi aslida ikki xalq o‘rtasida uzoq yillar davomida shakllangan ijtimoiy aloqalar tarmog‘ining tashqi, ko‘zga ko‘rinadigan qatlami.



O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy zamini bir kunda vujudga kelgan emas. Koreya Respublikasi Osiyo-Tinch okeani mintaqasida mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan davlat sifatida tarixga kirdi.

Davlatimiz rahbarining Seulga bu galgi tashrifi barqaror va izchil rivojlanib borayotgan munosabatlarning navbatdagi bosqichi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday izchillik muhim ijtimoiy hodisadir: u tasodifiy siyosiy konyunkturaga emas, balki ikki tomondagi jamiyatlarda shakllangan barqaror ishonch va o‘zaro manfaatdorlik hissiga asoslanadi.

Bugun Koreya Respublikasida yashab, mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan o‘zbekistonliklar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ana shu talabalar, ishchi-mutaxassislar, ilmiy izlanuvchilar ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlikning eng jonli, eng samimiy timsolidir. Prezidentimizning Seuldagi tashrifi chog‘ida yurtdoshlarimiz bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqot, ularning turmush sharoiti, ilmiy izlanishlari va kasbiy istiqbollari haqidagi



> **Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan qaraganda, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik shunchaki hukumatlar darajasidagi kelishuvlar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli — bir-birini tan olish va o‘zaro ishonch asosida quriladigan barqaror aloqa tizimidir. Bunday aloqa faqat manfaat evaziga emas, balki umumiy qadriyatlarga asoslanganda uzoq umr ko‘radi. O‘zbek va koreys xalqlari misolida bu umumiylikni bir necha jihatdan kuzatish mumkin.**

samimiy suhbat davlatlararo munosabatlarning inson omiliga qanchalik chambarchas bog‘liq ekanini yana bir bor ko‘rsatadi. Zero, har qanday davlat siyosati, agar u oddiy odamlarning turmush tarzida, kundalik faoliyatida o‘z aksini topmasa, uzoq umr ko‘rmaydi.

Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan qaraganda, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik shunchaki hukumatlar darajasidagi kelishuvlar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli — bir-birini tan olish va o‘zaro ishonch asosida quriladigan barqaror aloqa tizimidir. Bunday aloqa faqat manfaat evaziga emas, balki umumiy qadriyatlarga asoslanganda uzoq umr ko‘radi. O‘zbek va koreys xalqlari misolida bu umumiylikni bir necha jihatdan kuzatish mumkin.

Birinchidan, ikkala xalqda ham mehnat ijtimoiy qadriyat sifatida yuksak baholanadi. Koreyaning Ikkinchi jahon urushidan keyingi tezkor ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti xalq mehnatsevarligi, tashkilotchiligi va bilimga intilishi bilan bog‘liq bo‘lganidek, o‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyotida ham mehnat va ilm-ma’rifat doim yuksak ijtimoiy qadriyat sanalgan.

Ikkinchidan, oila institutiga har ikki jamiyatda ham ijtimoiy barqarorlikning tayanch nuqtasi sifatida qaraladi: kattalarga hurmat, avlodlar o‘rtasidagi uzviylik, farzand tarbiyasiga mas’uliyatli munosabat — bular Sharq falsafasining umumiy mag‘zini tashkil etadi. Shu bois, o‘zbek hamda koreys jamiyatlarida bir-biriga yaqin ijtimoiy kodlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, ilm-ma’rifatga intilish ikkala madaniyatda ham alohida o‘rin tutadi. Bugun O‘zbekistonda to‘rtta koreys universiteti filiali va beshta KOICA kasb-hunar markazining faoliyat yuritishi shunchaki ta’lim xizmati emas, balki ikki xalq o‘rtasidagi bilim va tajriba almashinuviga ijtimoiy ehtiyojning institutsional ifodasidir. Ijtimoiy falsafada bunday hodisa ijtimoiy kapitalning oshishi sifatida talqin etiladi. Kishilar bir-birining tajribasidan o‘rganganda ular o‘rtasida nafaqat bilim, balki ishonch va hurmat ham kuchayadi.

Do‘stlik falsafiy tushuncha sifatida hech qachon bir tomonlama bo‘lmaydi. Arastu etikasida haqiqiy do‘stlik o‘zaro ezgulikka asoslangan, teng huquqli munosabat sifatida ta’riflanadi. O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlikning strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilishi ham aynan mana shunday tenglik va o‘zaro hurmat tamoyiliga asoslangan. Bu yerda gap faqat investitsiya yoki texnologiya oqimi emas, balki ikki xalqning bir-birini teng sherik sifatida tan olishi haqida bormoqda.

Tashrif chog‘ida qo‘lga kiritilgan natijalarga nazar tashlasak, ularning aksariyati aynan ijtimoiy ta’sir doirasi keng bo‘lgan sohalarga tegishli ekanini ko‘ramiz. Prezidentimiz belgilab bergan besh ustuvor yo‘nalish — savdo, investitsiya, kritik minerallar, transport va infratuzilma bevosita yoki bilvosita millionlab oddiy fuqarolarning turmush darajasiga ta’sir ko‘rsatadigan sohalardir. Xususan, kritik minerallar sohasida rejalashtirilgan loyihalarda xomashyoni oddiygina eksport qilish emas, balki uni O‘zbekiston hududida qayta ishlab, tugallangan mahsulotga aylantirish maqsad qilingani, bu ish o‘rinlari ochish, malaka oshirish va yosh mutaxassislarni tayyorlash orqali jamiyatning bevosita manfaatiga xizmat qiladigan yondashuvdir.

Xuddi shunday: sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bo‘yicha kelishuvlar, sog‘liqni saqlash sohasidagi hamkorlik dasturlari — bularning barchasi oxir-oqibat ikki mamlakat fuqarolarining kundalik hayoti sifatini yaxshilashga qaratilgan. Seulda o‘tkazilgan O‘zbekiston — Koreya biznes forumida ishtirok etgan tadbirkorlar, mutaxassislar va olimlar o‘rtasidagi muloqot ham ijtimoiy aloqalarning yana bir muhim shaklidir. Chunki har qanday institutsional hamkorlik kishilar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar orqali amalga oshadi.

Ijtimoiy falsafada xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda “yaqin uzoqlik” degan qiziq holat mavjud: geografik jihatdan bir-biridan ancha uzoqda joylashgan ikki xalq mentalitet va qadriyatlar darajasida bir-biriga g‘oyat yaqin bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston va Koreya Respublikasi aynan shunday holatning yorqin namunasidir. Ikki mamlakatni geografik jihatdan minglab kilometrli masofa ajratib tursa-da, ijtimoiy-madaniy jihatdan ular bir-biriga behad yaqin: har ikki xalqda ham jamoaviylik hissi individualizmdan ustun, ota-ona va farzand o‘rtasidagi burch tuyg‘usi kuchli, ta’lim esa ijtimoiy yuksalishning asosiy vositasi sifatida qadrlanadi.

O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi hozirgi strategik sheriklik birdan vujudga kelgan hodisa emas, balki o‘ttiz besh yildan ortiq vaqt davom etgan ijtimoiy jarayonning tabiiy natijasidir. Bu jarayonning tub mohiyatini tashkil etuvchi omillar umumiy mehnatsevarlik qadriyati, oila va ta’limga hurmat, bir-birini teng sherik sifatida tan olish hamda kishilar o‘rtasidagi bevosita samimiy muloqotdir.

OLIS HUDUDLARDA YANGILANISHLAR NAFASI

Prezidentimizning 2024-yil 31-yanvardagi “Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish” loyihasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida shu kunlarda Surxondaryo viloyatining 8 ta — Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo, Uzun, Denov, Sho‘rchi, Sherobod va Boysun tumanlarida bunyodkorlik avj olgan. Bu megaloyihaning umumiy qiymati 100 million dollar. U Jahon banki mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilyapti.

Islohot odimlari



Dastur doirasida Surxondaryo viloyatida birgina ichimlik suv ta’minoti uchun 250 milliard so‘m yo‘naltirilgan. Voha bo‘ylab 330 kilometr suv tarmog‘i, 134 kilometr oqova suv tizimi, 19 ta suv inshooti, shuningdek, 320 kilometrga yaqin zamonaviy yo‘l, piyodalar yo‘lagi barpo etilishi belgilangan.

Ziyorat turizmi maskani — Boysun tumanidagi Omonxona qishlog‘i bugun katta o‘zgarishlar og‘ushida. Hududga eltuvchi yo‘llarni tartibga solish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari tayyorlandi va pudratchi korxonalar aniqlandi.

— Omonxonaga obihayot keltirish uchun muhandislik ishlarini bajaryapmiz, — deydi muhandis Nodir Isroilov. — Shu kunlarda baland qoyalar oralab qariyb 12 kilometr uzoqdan quvur tortilmoqda. Buning uchun 12,2 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ sarflanib, 22 kilometr ichki suv tarmog‘i va 4 ta yirik suv saqlash inshooti qurilyapti.

Surxondaryodagi tog‘li manzillardan biri Sariosiyo tumanida ham o‘zgarishlar nafasi sezilmoqda. Bu yerda suv tizimini modernizatsiyalash uchun 47,8 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgan.

— Loyiha doirasida Sariosiyo tumanida 103 kilometr yangi tarmoq, suv inshooti, sig‘imi 750 kub metr bo‘lgan 2 ta zaxira suv havzasi va zamonaviy laboratoriya binosi barpo etilmoqda, — deydi muhandis Erkin Shometov. — Bu sa’y-harakatlar tufayli tumandagi 9 ta mahallaning 10 mingdan ortiq xonadoniga toza ichimlik suv kirib boradi.

Shu kunga qadar Jarqo‘rg‘on tumanining ko‘plab mahalla va qishloqlarida markazlashgan toza ichimlik suv umuman yo‘q edi. Aholi kundalik ehtiyoji uchun suvni tashib kelardi. Endi bu og‘riqli muammoga uzil-kesil nuqta qo‘yildi. Tumanda keng ko‘lamli qurilish-montaj jarayoni davom etib, har bir xonadonga obihayot kirib bormoqda.

Vohaning boshqa hududlarida ham bunyodkorlik shiddati yaqqol seziladi. Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi va Uzun tumanlarida ichimlik va oqova suv tarmoqlari qurish, yo‘llarni yangilash ishlari qizg‘in pallaga kirgan. Jumladan, Xalqaro moliya tashkilotlarining 37,6 million dollar mablag‘i evaziga mazkur tumanlarda 134 kilometr oqova suv tarmog‘i hamda sutkasiga minglab kub metr suvni tozalash quvvatiga ega 4 ta zamonaviy inshoot yaqin orada qad rostlaydi. Jahon banki ko‘magida olib kelingan 48 ta zamonaviy texnika qurilish, bunyodkorlik ishlari samarali va o‘z vaqtida sifatli bajarilishiga xizmat qilayotir.



> **Surxondaryodagi tog‘li manzillardan biri Sariosiyo tumanida ham o‘zgarishlar nafasi sezilmoqda. Bu yerda suv tizimini modernizatsiyalash uchun 47,8 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgan.**

Denov tumanida so‘nggi yillarda qurilish va bunyodkorlik ko‘lami kengayib, hudud qiyofasi yangilanib bormoqda. Ayniqsa, tuman markazini zamonaviy shaharsozlik talablari asosida kompleks rivojlantirish, aholi uchun qulay turmush sharoiti yaratish hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Denovda ichimlik suv ta’minoti, elektr energiyasi, tabiiy gaz, avtomobil yo‘llari va kanalizatsiya tarmoqlarini yaxshilash uchun ko‘p ish bajarildi. Mavjud tarmoqlarni rekonstruksiya qilish va zamonaviy talablar asosida yangilash natijasida xizmat sifati oshirilib, aholi uchun qulay sharoit yaratildi.

Qurilishlar ko‘lami kengayib, turar joylar soni ortishi maishiy oqova suv hajmini ko‘paytiradi. Shu bois, Denov tumanida oqova suv tozalash inshooti va kanalizatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha yirik loyiha amalga oshirildi.

Loyiha doirasida oqova suvni qabul qilib, tozalaydigan va belgilangan talablar asosida chiqarib yuboradigan majmua barpo etildi. Yangi majmua nafaqat kanalizatsiya tizimining ishonchli va uzluksiz faoliyatini ta’minlaydi, balki atrof-muhit muhofazasi, sanitariya-gigiyena borasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

— Quvvati sutkasiga 10 ming kub metrni tashkil etuvchi yangi inshoot oqova suvni zamonaviy texnologiyalar asosida tozalash imkonini beradi. Loyiha doirasida 4,8 kilometr uzunlikdagi oqova suv kollektori barpo etilib, uning uzluksiz faoliyatini ta’minlash uchun obyektlar qurildi. Shuningdek, inshoot hududidagi mavjud laboratoriya va yordamchi binolar rekonstruksiya qilinib, moddiy-texnik bazasi yaxshilandi, — deydi “Surxondaryo suv ta’minoti” AJ direktori o‘rinbosari Ulug‘bek Normurodov.

Majmuaga Turkiyadan keltirilgan zamonaviy texnologik uskunalar to‘liq o‘rnatildi. Ularni ishga tushirish va texnologik jihatdan sozlash turkiyalik tajribali mutaxassislar ishtirokida yakunlandi.

— Denov tumanidagi mazkur suv majmuasidagi texnologik jarayonlar yuqori darajada avtomatlashtirilgan. Bu tizimning asosiy ish jarayonlarini zamonaviy boshqaruv vositalari orqali nazorat qilish imkonini beradi. Inshootda zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilishi elektr energiyasidan oqilona va samarali foydalanish, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishda yordam beradi, — deydi Turkiyaning “Kuzu Grup” kompaniyasi muhandisi Ertug‘rul Senbahchi.

Yangi texnologik uskunalar uzluksiz va barqaror ishlashini ta’minlash maqsadida inshoot uchun alohida yangi elektr podstansiyasi barpo etildi. Eskirgan transformatorlar zamonaviy va yuqori samarali uskunalarga almashtirildi.

Surxondaryodagi bunday ko‘lamdor loyihalar chekka hududlarda yashaydigan insonlar qalbiga quvonch ulashmoqda. Yangi qiyofa kasb etayotgan qishloqlar fuqarolarning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlamoqda.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Farovonlik xaritasi



OROLBO‘YI AHOLISINING KO‘NGIL IZHORI

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifidan keyingi o‘ylar



Nazira MATYAQUBOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi deputati

Boshlanishi 1-betda

Kegeyli tumanidagi “ADM Agro” korxonasining sanoatlashgan intensiv bog‘i, “Kegeyli baraka nasli parranda” korxonasi, tumanda tashkil etilgan issiqxona majmuasi, Nukus tumanidagi Diyqan arna mahallasi, Qoraqalpog‘iston ilmiy-amaliy tibbiyot akademiyasiga tashrif jarayoni va qator loyihalar qurilishiga start berilgani barcha qoraqalpog‘istonliklarni hayajonga soldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz odamlar orasida yurib, bunga guvoh bo‘ldik.

Zero, dasta-dasta hujjatlar qabul qilingan, lekin bajarilmagan, qop-qop va’dalar berilgan, lekin ijrosi ta’minlanmagan, ichkaridagi gap tashqariga to‘g‘ri kelmagan davrlarni ko‘rgan bu xalq ko‘ksiga shamol tekkaniga ishonchi so‘nggi yillarda mustahkamlanayotgani ham ayni haqiqat.

O‘n yil oldingi va bugungi Qoraqalpog‘iston. Tinimsiz aylanib borayotgan tarix g‘ildiragi bosib o‘tayotgan yo‘lning bu ikki nuqtasini qiyoslash uchun chuqur tahlillar shart emas. Butun hudud aholisining ko‘z o‘ngida har kuni sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangilanishlarning o‘zi islohotlar natijasini yaqqol namoyon etib turibdi.

So‘nggi o‘n yilda Orolbo‘yidagi ekologik muammoga yechim topilib, hududda ko‘zni quvontiradigan yashillik bunyod etilgani, Qoraqalpog‘istonning 2016-yilda 8,5 trillion so‘mni tashkil etgan yalpi hududiy mahsuloti joriy yil boshiga kelib 54 trillion so‘mdan oshgani, e’tibor va imtiyozlar tufayli sanoat, ishlab chiqarish, aholi bandligini ta’minlash imkoniyatlari tubdan kengaygani, bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrovi hamda yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish ko‘rsatkichi bir necha baravar oshgani — bularning barchasi odamlarning bugungi kayfiyatida o‘z aksini topmoqda.

Qisqa muddatda Bo‘zatovda sanatoriy, Nukusda onkologiya va radiologiya markazi, Qo‘ng‘irotda bolalar shifoxonasi va tug‘uruqxona, Amudaryo va To‘rtko‘lda amfiteatrlar, Nukus shahrida gimnastika markazi hamda Konservatoriya filiali foydalanishga topshirildi. A-380 magistralining Qo‘ng‘irotdan o‘tgan 240 kilometrida 384 million dollar hisobiga beton qoplama yotqizildi.

Shu yil iyunda esa To‘rtko‘l tumanidagi Shodlik mahallasi hududida 13 milliard so‘m hisobiga qurilgan, hofiz Otajon Xudoyshukurov nomidagi 2000 o‘rinli amfiteatrni foydalanishga topshirish marosimi bo‘ldi. Marosimda o‘rindiqlar otaxonu onaxonlar, yoshlar, hatto, farzandlarining qo‘lidan tutib kelgan yosh kelinlar bilan liq to‘ldi. Joy yetmaganlar ham aslo qaytib ketish haqida o‘ylamay, tik turgan holda o‘z quvonchini raqslar, qarsaklar bilan ifoda etdi. Tadbir chin ma’noda xalq bayramiga aylanib ketdi. Zero, To‘rtko‘lning necha asrlik tarixidagi birinchi amfiteatr edi bu. Yaqinda mustaqilligimizning 35 yilligi ham ana shu yangi inshootda o‘tkazilib, bayramga va har bir inson qalbiga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi. Shunday ekan, albatta, odamlar o‘z Prezidentini yaxshi ko‘radi-da!

Erishilgan bunday yutuq va marralar hudud taraqqiyotining navbatdagi bosqichlariga poydevor bo‘lishi muqarrar. Tashrif davomida 7 milliard dollarlik 47 ta loyiha qurilishiga start berildi.

Nukus shahrida o‘tkazilgan Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda ishtirok etar ekanman, Italiyaning “Bonifika Ferrarizi” kompaniyasi bilan Taxtako‘pirda 50 million dollarlik loyiha boshlanayotgani, uning doirasida 2000 gektar yerda pomidor va g‘alla yetishtirilib, chuqur qayta ishlanishi hamda Yevropaga eksport qilinishi, Shinjon tajribasi asosida ozuqa yetishtirish jarayoni tashkil etilib, xorijdan 5000 bosh qo‘y-echki olib kelinishi, yil yakunigacha 10-15 ming gektarda loyihalarni shakllantirib, bir yilda 100 ming bosh qo‘y-echki boqishni yo‘lga qo‘yish belgilangani, shuningdek, Qorao‘zak tumanidagi Zengibobo konida oltin qazib olish bo‘yicha 20 million dollarlik korxona barpo etilishini eshitganimda yaqin tarixdagi ba’zi voqealar xayolimda gavdalandi.

Bundan deyarli 20 yillar oldin aynan Taxtako‘pirdagi odamlar uy-joyini tashlab, qo‘shni mamlakatga ko‘chib ketayotgani haqida eshitgan edim. Hatto boshqa hududlardan borib, egasiz qolgan uylarni buzib, eshik, deraza romlari, umuman, qurilish materiallarini olib ketayotganlarini eshitganimda qalbim larzaga tushgandi. Qachon odam oilam bilan yashayman, to‘ylar qilaman deb umr bo‘yi qurgan uy-joyini shundoq tashlab, kundalik kiyim-kechaginigina ko‘tarib chiqib ketadi? Bu qarorga kelish uchun jiddiy asoslar bo‘lishi kerak. Ammo o‘sha yillarda Qoraqalpog‘istonning Taxtako‘pir, Qorao‘zak va boshqa shimoliy tumanlarida ana shunday holatlar yuz bergani ayni haqiqat.

O‘sha paytda ko‘chib ketganlar ona yurtining bugungi qiyofasini tasavvur ham qila olmagan, albatta. Bu joylar aholisi ko‘chib ketadigan emas, balki dunyodan odamlar yog‘ilib keladigan, minglab sayyohlarni bag‘riga oladigan maskan bo‘lishini xayoliga ham keltirmagan. Taxtako‘pirda “Qarateren” etnoturistik majmuasi, eng chekka hududlardan bo‘lgan Bo‘rchi tog‘ tepasida qurib bitkazilgan “Taxtepa” etno ovuli kabi xalqaro madaniy festivallarni o‘tkazadigan, turli millat vakillari birgalikda maroqli hordiq chiqaradigan, milliy qadriyatlarga sadoqat, millatlararo totuvlik va do‘stlik tuyg‘ularini dunyoga tarannum etadigan maskanlar barpo etilishini, Qorao‘zakda oltin qazib olinishini o‘shanda kim ham o‘ylabdi, deysiz!

2022-yili Prezidentimizning Qoraqalpog‘iston uchun qabul qilgan yana bir oqilona qaroriga guvoh bo‘lgan edik. Gap shundaki, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Orolbo‘yi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida Qoraqalpog‘istonning shimoliy tumanlari bittadan viloyatga biriktirildi. Aniqroq aytganda, Prezidentimizning 2022-yil 1-noyabrdagi “Orolbo‘yi mintaqasini barqaror rivojlantirish bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida aniqlangan sharoiti og‘ir oilalar va fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash hamda ovul va mahallalar infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish va mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.



Unda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Qoraqalpog‘istonning Nukus shahri va Bo‘zatov, Qorao‘zak, Kegeyli, Qo‘ng‘irot, Qonliko‘l, Mo‘ynoq, Nukus, Taxiatosh, Taxtako‘pir, Xo‘jayli, Chimboy, Shumanay tumanlariga biriktirildi.

Bu tashabbus barcha viloyatlar, butun mamlakatni Orolbo‘yida ezgulik yo‘lida birlashtirdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday hamjihatlik, o‘zaro ko‘mak, mehr-oqibat qanchadan-qancha qoraqalpog‘istonliklarning mushkulini oson, og‘irini yengil qildi.

19-sentabr kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda ham har bir tuman bo‘yicha investitsiya taqdimotlari o‘tkazish, viloyat hokimlari ishtirokida 2-3 ming yuqori daromadli ish o‘rni ochadigan loyihalarni boshlash topshirildi. Kelgusi yili Qoraqalpog‘istonga 5 milliard dollar investitsiya jalb qilish vazifasi qo‘yildi.

Bundan to‘rt yil oldin Nukus shahrida istiqomat qiluvchi bir guruh fuqaro — keksalar, xotin-qizlar, yoshlar, maktab o‘quvchilari davlatimiz rahbari nomiga minnatdorlik maktublarini yozgandi. Maktab o‘quvchilari esa tashakkurini o‘zlari chizgan rasmlarda ifoda etib, mahallasi, ko‘chasi, maktabi, bog‘chalarining oldingi holati va yangi qiyofasini shu suratlarda qiyosiy tasvirlagan edi. Ba’zilari sifatli qog‘ozga, ba’zilari rasm daftariga, ba’zilari esa oddiy varaqqa chizilgan rasmlarni ko‘rib, hayratga tushganman. O‘g‘il-qizlarning hali yosh bola bo‘lsa-da, yon-atrofidagi o‘zgarishlarni anglagani, his qilgani va suratlarda aks ettirganidan juda qattiq ta’sirlanganman. Xalqni rozi qilishdek mashaqqatli ishni uddalash mumkinligiga iqror bo‘lganman.

O‘shanda Prezidentimizning 2022-yil 23-24-fevral kunlari Qoraqalpog‘istonga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha Nukus shahrida ulkan bunyodkorlik ishlari bajarilgan edi. Avvalo, o‘rganish va tahlillar o‘tkazilib, shahardagi 64 mahallaning 38 tasi ichki yo‘llar va obodonlashtirish nuqtayi nazaridan og‘ir, 8 tasi esa o‘ta og‘ir degan xulosaga kelingan.

Qisqa muddatda ichki yo‘llar asfaltlandi, qum-shag‘al to‘shaldi, tungi yoritqichlar o‘rnatildi. Gaz, elektr energiyasi tarmoqlari ta’mirlandi. Qisqasi, infratuzilma yaxshilandi. Oldin yozda chang, qishda loy kechib yurgan odamlar endi tekis va ravon yo‘llarda ishga, o‘qishga otlanadigan bo‘ldi. Bolalar yangi sharoitlardagi maktablar va bog‘chalarga qatnay boshladi. Ular uchun sport maydonchalari, o‘yingohlar barpo etildi. Ana shu obodlik ko‘ngillarga ko‘chib, mamnuniyat va shukronalik keksayu yosh nukusliklarni Prezidentimizga o‘z minnatdorligini izhor qilishga undagandi.

Kasbi orqali mamlakat miqyosida katta obro‘-e’tibor qozongan, “Yil o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovida g‘olib bo‘lib, 52 ming AQSH dollari ekvivalentidagi mablag‘ni qo‘lga kiritgan qonliko‘llik o‘qituvchi Nigora Allambergenova, kuniga 7-10 million so‘m daromad topayotgan, yetishtirgan poliz mahsulotlarini ichki bozordan tashqari Qozog‘istonning Oqtov shahriga eksport qilayotgan mo‘ynoqlik tadbirkor Nafisa Bayniyazova ham muvaffaqiyatining asosi yaratilgan sharoitlarda ekanini ta’kidlab, yig‘ilishda Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi.

Davlatimiz rahbarining kelasi yili qoraqalpoq xalqining buyuk farzandi, shoir va mutafakkir Berdaq Qarg‘abay o‘g‘li tavalludining 200 yilligini munosib nishonlash, shoirning ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish, raqamlashtirish, asrab-avaylash va yoshlarga yetkazishni qamrab olgan dasturni ishlab chiqish taklifini ham ziyolilarimiz cheksiz mamnuniyat bilan kutib oldi. Zero, qoraqalpoq xalqi azaldan o‘z ajdodlari merosiga sadoqat bilan yondashadi. Shu nuqtayi nazardan, bu kabi ezgu tashabbuslar qoraqalpoq xalqining milliy qadriyatlariga yuksak ehtirom namunasidir.

...Yana o‘sha videotasvirga tikilaman. Nukusliklarning “Sizni yaxshi ko‘ramiz, hurmatli Prezident”, degan qalb so‘zlariga davlatimiz rahbari “Men ham sizlarni yaxshi ko‘raman”, deb javob beradi. Ana shu mehr-oqibat, hamjihatlik, og‘zibirchiligimizga ko‘z tegmasin deyman o‘zimga o‘zim. Prezidentimiz va xalqimizning yangi O‘zbekiston hamda yangi Qoraqalpog‘istonni birgalikda bunyod etish maqsadi ro‘yobga chiqib, tinch-totuv taraqqiyot sari odimlayveraylik.

ҚАРАҚАЛПАҚТА ШАДЛЫ ДӘЎРАН БОЛАЖАҚ



Нөкисте бир көше дүзеп салтанат,
Тағып жигирма төртте жети деген ат.
Сол көше бойында халқың алғыслап,
“Президентим келди!”— деп сазлар шалажақ.

Улкен-киши кеўлин ашып ентелеп,
“Узақ жасаңыз!” — деп жақсылық тилеп.
Нурлы жузиңизге қуўаныш үлеп,
Кеўиллер дәрьядай тасып-толажақ.

Халық ҳүрметин көриў не деген бахыт,
Гүллән журт баратыр жол бойы ағып,
Кеўиллерге меҳир шырағын жағып,
Қәдемиңе әлўан гүллер толажақ.

Қайта жаңаланған аўыл-қалалар,
Шәмендей гүлленген саҳра далалар.
Бүгин бақшадан жол алған балалар,
Президент мектебине баражақ

Барлық реформаңды мақуллап халық,
Ыразы болмақта өзиңнен анық.
“Көргеймен көзлерден жас емес, шадлық,”
Деген сөзиң елге дәрман болажақ.

“Ашшы көл”диң бойы болып тамаша,
“Нөкис Сити” қурылажақ жаңаша.
“Жаңа Өзбекстан” жаңа қалаша,
Адам танымастай майдан болажақ.

Толған айым көктен күлейин деп тур,
Халқым көктен жулдыз терейин деп тур.
Тез жүрер поездлар келейин деп тур,
Көрмегенге бәри әрман болажақ.

Ири жойбарлардың кәрўанын хошлап,
Қытай, Кореядан инвестор баслап.
Қарақалпаққа шан-шәўкетли көш таслап,
Басқан қәдемиңиз дәстан болажақ.

Қарақалпақтың бир улыман мен де деп,
Ел ушын қанша ис еттиң ентелеп.
“Жигит болсаң хызмет еткил елге” деп,
Ислеген мийнетиң болды мустажап.

Бердақтың еки жүз жыллығын ойлап,
Белгилеймиз дедиң елимиз бойлап.
Келеси жыл гүллән халық пенен тойлап,
Бабамыз тиллерде дәстан болажақ.

Гүлнара НУРЛЕПЕСОВА

Ислериң көп бундай халқыңа жаққан,
Изиңизден ерген ул-қызлар шаққан.
Дүнья ҳәўес пенен өзиңе баққан,
Бәри-бәри жаңа тарийх болажақ.

Қазылма байлықтың таўып уясын,
Ҳәм турмыста қоллап илим зиясын,
Самал менен қуяш энергиясын,
Алған елдиң бахты бийик болажақ.

Жумыс баслайғойса қырық жети жойбар,
Қарақалпағымда ис пәти қайнар.
Жаңа режелер,жаңаша ойлар.
Ана жерден Марсқа жол салажақ.

Жаңа “Нөкис Сити” тез түсер көзге,
Тарийх жаңаланар қыясы өзге.
Қарақалпақ халқы миннетдар Сизге,
Бул жолда халық бир тән, бир жан болажақ.

Президентимиздиң кеўили толып,
Сондай ырза болды ел ишин шолып.
Бәримиз бир Ўатан, бир халық болып,
Халықтың жаңа тарийхында қалажақ.

Енди басымыздан думанлар кетип,
Халық арзыў еткендей заманлар жетип
Журтбасшым аталық ғамхорлық етип,
Қарақалпақта шадлы дәўран болажақ.

QORAQALPOQDA SHODON DAVRON BO‘LAJAK

(Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog‘istonga tashrifiga bag‘ishlov)

Nukusda bir ko‘cha nur, fayzga to‘lib,
Taqib yigirma to‘rtga yetti degan nom.
Shu ko‘cha bo‘yida xalqim olqishlab,
“Prezidentim keldi!” — deb sozlar chalajak.

Katta-kichik ko‘nglin ochib intilib,
“Uzoq yashang!” — debon yaxshilik tilab.
Nurli yuzingizga quvonch nur ulab,
Ko‘ngillar daryoday toshib-to‘lajak.

Xalq hurmatin ko‘rish qanday baxt boqib,
Butun yurt bormoqda yo‘l bo‘yi oqib,
Ko‘ngillarga mehr chirog‘in yoqib,
Qadamingga alvon gullar to‘shajak.

Qayta yangilangan qishloq, qal’alar,
Chamandek gullagan sahro, dalalar.
Bugun bog‘chadan yo‘l olgan bolalar,
Prezident maktabi sari borajak.

Barcha islohotni qo‘llab xaloyiq,
Chin rozi bo‘lmoqda o‘zingdan aniq.
“Ko‘rgayman ko‘zlarda yosh emas, shodlik”,
Degan so‘zing elga darmon bo‘lajak.

“Achchiq ko‘l” bo‘ylari bo‘lib tomosha,
“Nukus Siti” qurilar yangicha go‘sha.
“Yangi O‘zbekiston” yangi shaharcha,
Odam taniyolmas maydon bo‘lajak.

To‘lgan oyim ko‘kdan kulayin deydi,
Xalqim ko‘kdan yulduz terayin deydi.
Tezyurar poyezdlar kelayin deydi,
Ko‘rmaganga bari armon bo‘lajak.

Yirik loyihalar yo‘lin olqishlab,
Xitoy, Koreyadan investor boshlab.
Qoraqalpoq sharafiga kuch tashlab,
Bosgan qadamingiz doston bo‘lajak.

Qoraqalpoq bir o‘g‘liman men ham deb,
Qancha ishlar qildingiz el g‘amin yeb.
“Yigit bo‘lsang xizmat etgil elga” deb,
Qilgan mehnatingiz bo‘ldi mustajob.

Berdaqning ikki yuz yilligin o‘ylab,
Nishonlash fikringiz yurtimiz bo‘ylab.
Kelgusi yil butun xalq bilan to‘ylab,
Bobomiz tillarda doston bo‘lajak.

Bunday ishlaringiz ko‘p xalqqa yoqqan,
Izingizdan borar o‘g‘il-qiz chaqqon.
Dunyo havas bilan lol, hayron boqqan,
Bari-bari yangi tarix bo‘lajak.

Qazilma boylikning topib uyasin,
Ham turmushda qo‘llab ilm ziyosin,
Shamol bilan quyosh energiyasin,
Olgan elning baxti buyuk bo‘lajak.

Ish boshlab, qirq yetti loyiha joylar,
Qoraqalpog‘imda ish shashti qaynar.
Yangi rejalar ham yangicha o‘ylar,
U yerdan Mars qadar keng yo‘l solajak.

Yangi “Nukus Siti” tez tushar ko‘zga,
Tarix yangilanar qiyofa o‘zga.
Qoraqalpoq xalqi minnatdor Sizga,
Bu yo‘lda xalq bir tan, bir jon bo‘lajak.

Prezidentimizning ko‘ngli ham to‘lib,
Shunday rozi bo‘ldi el ichin kezib.
Barchamiz bir Vatan, yakdil xalq bo‘lib,
Xalqning yangi tarixida qolajak.

Endi boshimizdan tumanlar ketib,
Xalq orzu qilganday zamonlar yetib.
Yurtboshim otaliq g‘amxo‘rlik etib,
Qoraqalpoqda shodon davron bo‘lajak!

Qoraqalpoqchadan Ravshan ISOQOV o‘zbekchalashtirdi.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, yurtdoshlarimiz ishlayotgan mamlakatlar orasida MDH davlatlarining ulushi 29 foiz kamayib, Yevropa mintaqasida 42 foiz, Sharqiy Osiyoda esa 26 foizga ko‘tarilgan.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_rasmiy yuz.uz_news yuz.uz_news



Oramizdagi odamlar

NAVRO‘ZBULOQ TOSHLARIDA HAM DARAXT O‘SADI

Insonning umrini yillar emas, qilgan ishlari bezaydi. Kimdir bir umr o‘ziga qulay sharoit izlaydi, kimdir esa sharoitni o‘zi yaratadi. Bir qarashda oddiy tuyulgan hayot yo‘li ortida katta mehnat, sabr, izlanish va eng muhimi, so‘nmas ishonch turgan bo‘ladi.

Shunday insonlar borki, taqdir sinagani sayin toblanib boradi. Qiyinchilik ularni ortga qaytarmaydi, aksincha, yangi yo‘l izlashga undaydi. Sunnat Boyxo‘rozov ana shunday insonlardan.

U gohida:

— Men barvaqt tug‘ilganman. Mustaqillikdan keyin tug‘ilganimda ancha ko‘p g‘oyalarimni amalga oshirgan bo‘lardim, — deb qoladi.

Avvaliga uning bu gaplarini eshitib, “Sunnat aka taqdiridan norozi shekilli”, deb o‘ylagandim. Keyin uning bolaligi, o‘smirligi va hayot yo‘li haqida eshitgach, bu gap noshukurlik emas, balki kechikkan imkoniyatlarga nisbatan alam ekanini tushundim.

Uning butun hayoti bir haqiqatni isbotlaydi: insonning qo‘lidan kasbini, qalbidan esa orzusini tortib olib bo‘lmaydi.

Sunnat Boyxo‘rozov 1972-yilda Jizzax shahrining Qipchoq mahallasida tug‘ilib, voyaga yetdi. Otasi Rahmatulla aka yuk mashinasi haydovchisi edi. Shu bois, Sunnatning bolalik dunyosida mashina, motor, temir-tersak va yo‘l tushunchalari alohida o‘rin tutardi.

Maktabdan kelishi bilan otasining mashinasi atrofida aylanar, murvatlarni burab mahkamlar, ehtiyot qismlarni qiziqish bilan kuzatar, hatto mashina g‘ildiraklarini yuvib qo‘yardi. Biroq uning qiziqishlari faqat texnika bilan cheklanib qolmadi.

O‘n-o‘n ikki yoshlarida otasi unga fotoapparat olib berdi. Sunnat o‘quvchilar saroyida suratga olish sirlarini o‘rgandi. Yorug‘lik va soya, rakurs va kompozitsiya, eng muhimi, inson hayotidagi bir lahzani abadiy saqlab qolish san’ati uni o‘ziga rom etdi.

Maktabdagi tadbirlar uning ishtirokisiz o‘tmaydigan bo‘ldi. Mahalladoshlari ham uning sifatli suratlarini ko‘rib, to‘y-ma’rakalarga taklif qila boshladi. U suratga tushirib, albomlar tayyorlar, qilgan mehnati uchun haq olardi. Bugun buni oddiy mehnat deb qabul qilamiz. Ammo o‘sha davrda vaziyat boshqacha edi: mehnatsiz daromad qilish deb qonunga ko‘ra jazolanardi.

— Shu masalada bir necha marta IIBning voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi bo‘limiga chaqirilganman, har gal dadam borib olib kelgan, — deydi Sunnat aka. — Lekin menga nisbatan nohaqlik bo‘layotganini qalbim bilan his qilardim.

U suratkashlikdan topgan pulini yig‘ib kelajakda katta fotostudiya ochishni rejalashtirgandi.

Sunnat bir ishdan qaytarilsa, boshqasiga qo‘l urdi. Sakkizinchi sinfga o‘tganida asalarichilikka qiziqib qoldi. Uch yil asalari boqdi. Yetishtirgan asali toza va sifatli bo‘lgani uchun mahalladoshlari mavsum boshlanmasidanoq buyurtma qilib qo‘yardi. Biroq bu hunar ham unga tinchlik keltirmadi. Ustidan kimdir shikoyat qildi. Tegishli idoralarga chaqirildi. “Noqonuniy savdo” qilganlikda ayblanib, jarimaga tortildi.

Bugun o‘sha voqealarni eslar ekan, Sunnat aka o‘tmishga achinishdan ko‘ra, undan saboq olganini ko‘proq ta’kidlaydi.



Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan paytda Sunnat qurilish materiallari kombinatida haydovchi bo‘lib ishlardi.

Yangi davr boshlangan edi. Iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, turmush tashvishlari hali bartaraf etilmagan bo‘lsa-da, inson tashabbusi va tadbirkorligi uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochilayotgandi. Sunnat ana shu eshikdan kirishga qaror qildi. Bobosi oshpaz bo‘lgani uchun mahallada choyxona ochishni rejalashtirdi. Buning uchun 15 bosh qoramol sotib oldi. Mollarni bo‘rdoqiga boqish barobarida “Qipchoq” choyxonasini qurishga kirishdi. Ammo tadbirkorlik faqat yaxshi niyat va g‘ayratning o‘zi emasligini tezda angladi.

Choyxona bir oy ishladi. Xo‘randalar esa u kutgan darajada kelmadi. Mehnat va mablag‘ sarflangani bilan ish zarar keltiraverdi. Sunnat kasod bo‘ldi. Biroq yana bir muhim saboq oldi — tadbirkorlikda xohishning o‘zi kifoya qilmaydi, bozorni bilish, odamlar ehtiyojini anglash, hisob-kitob va tajriba ham zarur.

“Mayli, hali bu sohaga yana qaytaman. Endi boshqacha yo‘l tutaman”, degan fikr uni yangi izlanishlarga boshladi. Bu gal u mahalla ko‘chalariga traktor tirkamalarini qo‘yib, aholiga mol go‘ngi va daraxtlardan tushgan xazonlarni shu yerga to‘kishi mumkinligini aytdi. Bu tashabbus ikki tomonga ham manfaatli edi. Aholi chiqindidan qutuldi, Sunnat esa xomashyoga ega bo‘ldi. Keyinchalik go‘ng va xazonlarni boshqa mahallalardan ham yig‘ib ola boshladi. Maxsus chuvalchanglar yordamida biogumus ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi.

Bir vaqtlar odamlar chiqindi deb qaragan go‘ng va xazon endi qishloq xo‘jaligi uchun qimmatli mahsulotga aylandi. Sunnat aka shu jarayonda tadbirkorlikning yana bir muhim qoidasini o‘rgandi — mahsulot ishlab chiqarishdan oldin bozorni o‘rganish kerak.

Reklama va marketing bo‘yicha bilim oldi, gazeta-jurnallarni o‘qidi, mutaxassislar maslahatlarini o‘rgandi. Turli sohalardagi ilg‘or tajribalarni o‘z ishiga tatbiq etishga harakat qildi. Shu tariqa u avvalgi xatolarini takrorlamasdan yana choyxonachilik sohasiga qaytdi.

Bu safar maqsad aniq edi.

— Jizzax somsasi va jizini brend darajasiga olib chiqish uchun qo‘limdan kelgan hamma ishni qildim, — deydi Sunnat aka.

U Toshkent, Samarqand, Guliston va boshqa shaharlardagi tanish-bilishlariga qo‘ng‘iroq qildi. Choyxona ochganini aytib, ularni bir piyola choyga taklif qildi. Bu oddiy taklif ortida katta marketing g‘oyasi bor edi.

Choyxonaga kelgan odam taomni tatib ko‘radi, uning sifatiga baho beradi, keyin esa boshqalarga aytadi. Qisqa vaqt ichida Jizzaxning Qipchoq somsasi brend darajasiga chiqdi. Shu tariqa Jizzax somsasi va jizi haqidagi tasavvurlar kengaydi. Milliy taom tadbirkorlikning bir qismiga, tadbirkorlik esa turizmning bir yo‘nalishiga aylana boshladi.

Sunnat aka Jizzaxning gastronomik brendini shakllantirishga hissasini qo‘shishga harakat qildi. Bu izlanishlar uni yana bir katta g‘oya sari boshladi.

Turizmning salohiyatini yaxshi anglagan Sunnat Boyxo‘rozov endi o‘z mahallasiga yaqin Navro‘zbuloq adirligiga boshqacha nigoh bilan qaray boshladi. Bu yerda tabiatning o‘zi yaratgan betakror manzara bor edi. Ammo uning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasdi. 10-15 tup daraxt soyasida yoshlar pivo ichib o‘tirar, atrofda shisha siniqlari, bo‘sh plastik idishlar sochilib yotardi. Vaholanki, bir vaqtlar bu yerda xalq sayillari o‘tgan.





Sunnat aka adirlikning kelajakda qanday qiyofa kasb etishini tasavvur qildi. U shahar hokimligiga bordi. Adirlikni o‘zlashtirish, bu yerda o‘rmonzor tashkil etish va sayyohlar uchun munosib maskan yaratish g‘oyasini bildirdi. Tegishli hujjatlarni taqdim etdi. G‘oyani amalga oshirish oson kechmadi. Chunki adirlik oddiy yer emas. Bu yerda suv masalasi, ko‘chatlarni parvarishlash, yo‘l, infratuzilma kabi ko‘plab muammolarni hal qilish kerak edi. Ammo yillar o‘tdi. Qoyatoshlar orasida nihollar paydo bo‘ldi. Archalar bo‘y cho‘za boshladi. Manzarali daraxtlar adirlikka yangi qiyofa berdi.

— Vaqt o‘taverar ekan, adirlikning eng yuqorisiga, qoyatoshlar orasiga ham archa va manzarali daraxt nihollari ekilyapti. Ular kuchli havo bosimi bilan yomg‘irlatib sug‘oriladi. Hozir adirlikda 20 ming tupga yaqin daraxt bor. Har yili 1500-2000 tup ko‘chat ekiladi. Sug‘orishni o‘zim nazorat qilaman, — deydi Sunnat aka. — Bu o‘rmonzorda vaqti kelib yuz ming tupdan ortiq daraxt o‘sadi. Bu raqamning o‘ziyoq loyiha ko‘lamini ko‘rsatib turibdi.

Navro‘zbuloqning salqin va musaffo havosi jazirama shahardan kelgan kishiga darhol ta’sir qiladi. Qirdagi so‘qmoqdan yuqoriga ko‘tarilganingiz sayin havoning salqinlashib borayotganini sezasiz.

— Adirlikda havo harorati Jizzax shahridagidan 10-15 daraja past, — deydi Sunnat aka.

Bugun Navro‘zbuloq Jizzax viloyati turizm loyihalari xaritasidan o‘rin olgan. Har yili bu yerga 5-6 ming sayyoh kelib, hordiq chiqaradi.

Kechagi tashlandiq adirlikning bugun sayyohlar qadam bosadigan maskanga aylangani o‘z-o‘zidan bo‘lgan ish emas.

Sunnat Boyxo‘rozovning o‘ziga xos yana bir jihati bor, u har bir ishning ertangi emas, o‘n yillardan keyingi natijasini ko‘z oldiga keltirib reja qiladi.

— Har bir ishni 10 yillar avval rejalashtirishga o‘rganib qolganman, — deydi u.

Puxta hisob-kitoblardan keyin adirlikda qiymati 13,5 milliard so‘m bo‘lgan “Salomatlik markazi” qurib bitkazildi. Markazdagi eng yirik suv havzasi jahon standartlariga mos bo‘lib, bu yerda suzish bo‘yicha respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarni tashkil etish imkoniyati mavjud.

Shunday qilib, Navro‘zbuloqning qiyofasi yanada ko‘rkamlashmoqda. Bu yerda tabiat va turizm bilan bir qatorda sport, sog‘lomlashtirish va ommaviy dam olish yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bir vaqtlar shisha siniqlari sochilib yotgan adirlikning bugun odamlar sog‘lig‘ini tiklaydigan, daraxtlar o‘sadigan va yangi loyihalar tug‘iladigan maskanga aylanayotgani ham ana shu izchil mehnat samarasidir.

Insonning eng katta yutug‘i qilgan ishi bilan birga uning davomchilarini ham tarbiyalay olganidir.

2025-yilda Sunnat Boyxo‘rozov davlatimiz rahbari tomonidan “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Choyxona ishlarini o‘g‘li Ruhiddinga topshirdi. Ota izidan borayotgan Ruhiddin ham yaqinda “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” nishoni sohibi bo‘ldi.

Demak, bir vaqtlar fotoapparat bilan maktab tadbirlarini suratga olib yurgan bolaning mehnat va izlanishga asoslangan hayot falsafasi farzandiga ham yuqqan. Bu, ehtimol, har qanday mukofotdan qimmatliroqdir.

Navro‘zbuloq adirlaridagi archazorlarni aylanib yurar ekanmiz, ko‘zimiz bir niholga tushdi. U qoyatoshni yorib chiqib, bosh ko‘targan edi. Oddiy nihol. Ammo uning ko‘rinishida katta ma’no bor edi.

— Buni ilk bor ko‘rganimda, o‘zim ham hayratga tushgandim, — dedi Sunnat aka.

Tabiat mo‘jizalarga boy. Lekin bu manzara inson hayoti haqida ham ko‘p narsa aytadi. Zero, inson taqdirida ham “toshlar” — qiyinchiliklar, taqiqlar, omadsizliklar, nohaqliklar, so‘ngan umidlar bo‘ladi. Ammo ba’zi odamlar ana shu “toshlar” orasidan ham yo‘l topadi.

Sunnat Boyxo‘rozovning hayoti bunga misol. U suratkashlikdan boshladi, asalarichilik qildi, texnika bilan shug‘ullandi, tadbirkorlikka qadam qo‘ydi, kasod bo‘ldi. Yana turdi, chiqindidan biogumus yaratdi, Jizzax somsasini brend sifatida targ‘ib qildi, tashlandiq adirlikda daraxt ekishga kirishdi, qoyatoshlar orasiga nihol o‘tqazdi.

Bugun esa uning orzulari minglab daraxtlar shaklida ko‘z o‘ngimizda bo‘y cho‘zmoqda. Shu bois, Navro‘zbuloqdagi toshni yorib chiqqan niholga qarab, bir fikr xayolga keladi: inson mehr bilan ish boshlasa, sabr bilan davom ettirsa va o‘z orzusiga ishonchini yo‘qotmasa, toshloq yer ham unga daraxt beradi.

Ehtimol, Sunnat akaning “Men barvaqt tug‘ilganman”, degan gapiga ham shu nuqtayi nazardan qarash kerakdir.

U barvaqt tug‘ilgan emas, balki o‘z davridan bir oz oldinroq fikrlagan, uning bolalikdagi fotostudiyasi bugun bo‘lmasligi mumkin edi. Ammo uning daraxtlari bor, uning g‘oyalari bor, uning ortidan borayotgan farzandi bor. Eng muhimi, bir vaqtlar tashlandiq bo‘lib yotgan adirlikda kelajakda yuz ming tup daraxt o‘sishiga ishonch bor.

Daraxt esa shunday, uning soyasidan o‘zingiz emas, keyingi avlod ham bahramand bo‘ladi. Navro‘zbuloqdagi nihollar shuning uchun qadrli. Ular bugungi kun uchun emas, ertangi kun uchun ekilyapti.

Toshlar orasida ham.

Asad MUSTAFOYEV,
jurnalist



Inson qadri uchun

MEHNAT MIGRATSIYASI – MALAKALI KADRLAR UCHUN DAROMAD MANBAYI

Har qanday muammoga yangicha qarash, to‘g‘ri yondashuv orqali oqilona yechim topish mumkin. Bir paytlar fuqarolarning xorijga mehnat qilish uchun ketishiga katta muammo sifatida qaralardi. Ro‘zg‘or tebratish, bolalarining ustini but, qornini to‘q qilish uchun chet elda yurgan vatandoshlarimizga begonadek qaralardi.

Keyingi yillarda mehnat migratsiyasini tartibga solishga qaratilgan e’tibor tufayli yondashuv mutlaqo o‘zgardi. Sohani taraqqiy ettirish, yangi bosqichga olib chiqish uchun oqilona mexanizm ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbari xorijiy davlatlarga tashrifi davomida o‘sha yerda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimiz, xususan, o‘zbek diasporasi vakillari bilan ko‘rishishga albatta vaqt topadi. Bunday munosabat xorijdagi vatandoshlarimizni ham befarq qoldirmadi. Ularning biri O‘zbekistonga investitsiya kiritdi, boshqasi kuchli bilimi, tafakkuri va xalqaro darajadagi tajribasi orqali O‘zbekiston taraqqiyotiga hissa qo‘shish uchun Vatanimizga qaytib keldi.

Davlatimiz rahbarining mehnat migratsiyasiga doir islohotlaridan ko‘zlangan maqsad xorijda mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizning yuqori daromad topishi, sohasining ustasi sifatida shakllanishi, yashash sharoiti, oylik maosh yuqori davlatlarga borib ishlashini ta’minlash, eng asosiysi, mehnat munosabatlarida mahalliy xodimlar bilan teng huquq va kafolatlarga ega bo‘lishiga erishishdan iborat.

Bugun yurtdoshlarimiz qirqqa yaqin davlatda mehnat qilmoqda. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, yurtdoshlarimiz ishlayotgan mamlakatlar orasida MDH davlatlarining ulushi 29 foiz kamayib, Yevropa mintaqasida 42 foiz, Sharqiy Osiyoda esa 26 foizga ko‘tarilgan. Raqamlardan ham ko‘rinib turibdi: ishlash uchun eng jozibador hudud Yevropa mamlakatlaridir. Sababi u yerda ishchilarning huquq va erkinliklari ta’minlangan, daromad qilish imkoniyati yuqori. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, o‘rtacha eng yuqori oylik maosh Lyuksemburgda qayd etilgan — 9307 dollar ekvivalentida. Keyingi o‘rinlarda Belgiya (8297 dollar) va Niderlandiya (7234 dollar) turibdi. AQSH va Finlyandiyada ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 6273 va 6253 dollarni tashkil etsa, Irlandiya hamda Slovakiyada 5000 dollardan yuqori bo‘lgan.

Xorijda ishlash istagidagi fuqarolarni yuborishda nafaqat yuqori maoshli, balki ishchi kuchiga talab yuqori mamlakatlarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Chet elda arzon ishchi kuchi bo‘lib qolmasligi uchun yurtdoshlarimizga turli kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha yangi mexanizmlar ishlab chiqildi. Xususan, kasb-hunarga o‘rgatuvchi texnikumlar faoliyati tiklandi hamda “Kasb + til” tamoyili asosida qo‘shma ta’lim loyihalari yo‘lga qo‘yildi. Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kompaniyalari bilan texnikumlar negizida tashkil etilgan qo‘shma ta’lim loyihalari doirasida 8500 dan ortiq fuqaro ta’lim olmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun xorijdan til va kasb talablariga javob beradigan 100 mingdan ortiq malakali mutaxassisga buyurtma kelib tushgan. Jumladan, Germaniyaga 40 ming hamshira, Yaponiyaga qurilish, logistika va servis sohalari bo‘yicha 15 ming mutaxassis zarur. 2030-yilgacha Yevropa davlatlarida aholining keksayishi va mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushining qisqarishi mehnat bozori uchun asosiy tarkibiy muammolardan biriga aylanishi kutilmoqda.

Mazkur hududlarda ishchi kuchi taqchilligi 7,5-10,5 million kishigacha bo‘lishi taxmin qilinmoqda. Natijada muhandislik, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, infratuzilma qurilishi, transport va logistika, agrar soha, tibbiyot, axborot texnologiyalari, turizm hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida ishchi kuchiga talab oshishi kutilmoqda. Misol uchun, Germaniyaga har yili kamida



400 ming malakali migrant kirib kelmasa, YIM o‘sishiga salbiy ta’sir qiladi. Nordik davlatlar ekologik toza texnologiyalar markaziga aylanmoqda. “Yashil” metallurgiya, shamol energetikasi, axborot texnologiyalari sohasida talab ortib boradi.

Yaponiyada parvarishlash, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohalarida 6-7 million, Janubiy Koreyada esa kemasozlik, metalga ishlov berish, elektronika va sanoat tarmoqlarida 1,2-1,5 million ishchi kuchi taqchilligi yuzaga kelishi prognoz qilingan. Ushbu davlatlar O‘zbekiston uchun kelajakdagi istiqbolli mehnat bozoridir. Bo‘sh ish o‘rinlaridan faol foydalanish uchun yurtdoshlarimizni talab yuqori kasblarga o‘qitish zarurati mavjud.

Endi xorijda mehnat qilish uchun arzon ishchi kuchi emas, o‘z sohasining yetuk kadrlarini, turli kasb-hunarni puxta egallaganlarni yuborishi talab etiladi. Chunki inson kapitali zamonaviy dunyoda eng yaxshi sarmoya, mamlakat taraqqiyotining muhim omilidir. Shuningdek, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy valyuta olib kirishning eng sodda ko‘rinishi. Turli mintaqalarda ishlaydigan o‘zbekistonlik mehnat migrantlari daromadini O‘zbekistonda sarflaydi. Kimdir mol-mulk sotib olsa, boshqasi farzandini o‘qitadi, oilasi farovonligi yo‘lida ishlatadi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat iqtisodiyoti uchun ham foydali. 2026-yil yanvar-iyun oylarida chet eldan O‘zbekistonga yuborilgan pul o‘tkazmalari hajmi o‘tgan yildagiga nisbatan 8 foiz (100 million dollar) ko‘payib, 1,3 milliard dollarni tashkil qilgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Eng asosiysi, xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimizning haq-huquqlari munosib tarzda himoya qilinmoqda. Xususan, chet eldan O‘zbekistonga qaytib kelayotgan fuqarolar o‘z holiga tashlab qo‘yilayotgani yo‘q. Ularning ham bandligini ta’minlash uchun turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lsa, imtiyozli kredit taqdim etiladi. Dehqonchilik qilaman desa, yer beriladi.

So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo miqyosida 186 million kishi ishsiz, ishlashni istagan, biroq ish topmagan yoki mehnat bozoridan vaqtincha chetda qolganlarni qamrab oluvchi kengroq ish o‘rni taqchilligi esa 408 milliontaga yetishi prognoz qilingan bir pallada yurtimizda mehnatga layoqatli kishilarda tanlash imkoniyati mavjudligi keyingi yillarda sohadagi katta islohot va tashabbusli loyihalarning hosilasidir.

Zero, chet elda tajriba orttirib kelgan fuqarolar mamlakatimizga qaytgandan so‘ng ham turli tarmoqlarning taraqqiy etishiga munosib hissa qo‘shishi shubhasiz.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Ehtirom

Bugun o‘z ustida tinmay ishlayotgan, o‘quvchisiga butun mehrini ulashib, uning kamoloti uchun borini berayotgan har bir ustoz bunday g‘oliblikka munosib.

ENG KUCHLI USTOZLAR ENG YAXSHISIGA MUNOSIB

Mamlakatimizda ilk bor umumiy sovrin jamg‘armasi

128 MILLIARD SO‘Mdan ziyod bo‘lgan TANLOV G‘OLIBLARI ANIQLANDI

Boshlanishi 1-betda

Respublikamiz bo‘yicha 46 mingdan ortiq pedagog ishtirok etgan tanlov ustozlarga e’tibor va ularning o‘z kasbiy mahoratini namoyon etishga bo‘lgan intilishi nechog‘liq yuqori ekanini ko‘rsatdi. Yakunda yurtimizdagi shahar va tumanlarning har biridan bir nafardan — jami 208 pedagog g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Ta’lim tizimi tarixida bunday keng ko‘lamli rag‘batlantirish ilgari kuzatilmagan edi.

Shuning uchun 208 o‘qituvchi shunchaki g‘olib emas, balki yurtimizdagi ta’lim islohotlari samarasini o‘z faoliyatida ko‘rsatib bera olgan fidoyilar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ularning har biri 616 million so‘m (bazaviy hisoblash miqdorining 1400 baravari) miqdoridagi pul mukofotining asl haqdorlaridir. G‘oliblar nafaqat moddiy rag‘batlantiriladi, balki ilg‘or tajribasi ommalashtirilib, kasbiy salohiyati yanada oshiriladi. Bu esa o‘z-o‘zidan butun bir soha rivojiga, ayniqsa, ta’lim sifatini yaxshilashga beminnat xizmat qiladi.

Mazkur tanlovni har ikki yilda bir marta o‘tkazish belgilangan. Uch bosqichda tashkil etiladigan tanlov pedagoglarning kasbiy mahorati va bilim saviyasidan tashqari ma’naviy salohiyatini ham namoyon etib berishi bilan nihoyatda ahamiyatli.

— Davlatimiz rahbari o‘qituvchilikni eng obro‘li kasbga, maktab ta’limini rivojlantirishni esa umumxalq harakatiga va umummilliy maqsadga aylantiramiz degan fikrni ko‘p takrorlaydi, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi boshqarma boshlig‘i Azamat Kamolov. — Ayni paytda bu maqsad uchun qancha sarmoya kerak bo‘lsa, shuncha ajratib berilayotgani va o‘qituvchilarga zarur shart-sharoitlar yaratilayotgani ortidan ta’lim tizimida katta siljishlar kuzatilmoqda.

Yil o‘qituvchilarini kashf etish maqsadida keng ko‘lamli va yangicha yondashuvga asoslangan ushbu tanlov ilk bor tashkil etildi. To‘g‘ri, bu tanlov avvallari ham o‘tkazilar edi. Biroq ilgari 500-600 ming o‘qituvchi orasidan atigi 1-, 2- va 3-o‘rin sohiblarigina aniqlanardi. Endilikda esa har bir shahar va tumanning o‘z “yil o‘qituvchisi” bo‘ladi. Ular uy-joy sotib olish uchun yetarli miqdordagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Bunday ustozlarga chinakamiga havas qilishadi va ularning barchasi jamiyatdagi eng obro‘li shaxslarga aylanadi. Bu holat esa “Kelajakda o‘qituvchi bo‘laman”, deydigan yoshlar ko‘payishiga asosdir.

Biz suhbatda bo‘lgan yangi avlod ustozlari — butunlay yangicha qiyofa kasb etgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovi g‘oliblari ham o‘zlariga havas qilgan yoshlarni ergashtirishni yuksak sharaf deb biladi. Aslida, ular uchun xalqning ishonchi va shogirdlarning yutuqlari eng oliy mukofotdir.

KASBIMDAN BAXT TOPDIM



Odiljon NIYOZOV, Yuqori Chirchiq tumanidagi 34-maktabning kimyo fani o‘qituvchisi:

— Bugun men xalqimizning ustozga ehtiromi va ularni ulug‘lash bilan bog‘liq qadriyatlari hech qachon o‘lmasligiga guvoh bo‘lib turibman. Zero, bir paytlar yosh avlodni o‘qituvchilik kasbidan sovitgan har qanday holatlarga barham berildi. Ustozlarning yo‘qolayozgan obro‘si qayta tiklandi. Ta’lim tizimi tarixida misli ko‘rilmagan ishlar qilinmoqda. “Yil o‘qituvchisi” tanlovi nihoyatda adolatli tashkil etilgani buning birgina misolidir. Tanish-bilishchilikka o‘rin yo‘q, hamma barobar bo‘lgan bu maydonda faqat ilmning kuchi, tajriba va mahorat sof raqobatga kirishdi.

Tanlovning birinchi bosqichida biz inson omilisiz, faqat attestatsiyadan to‘plagan balimiz asosida saralashdan o‘tdik. Ikkinchi bosqichda esa dars o‘tish mahoratimiz sinovdan o‘tkazildi. Biz o‘z maktabimizda emas, boshqa bir tumanga borib, qur’a tashlash orqali o‘zimizga tushgan sinfga notanish mavzuni o‘tib berishimiz kerak edi. Men Bo‘stonliq tumanidagi 53-maktabning 10-sinfida “Fenollar va aromatik spirtlar” mavzusida dars o‘tdim. Darslarimizning videoyozuvi platformaga joylandi. Bizni hakamlardan tashqari tumanimizdagi boshqa o‘qituvchilar ham baholab bordi.

Uchinchi bosqich ikki turda tashkil etildi. Ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalish bo‘yicha loyihamiz taqdimotini o‘tkazdik, kitobxonlik yo‘nalishida esa belgilangan asarlar doirasida test topshirdik. Natijalarimizni o‘zimiz to‘g‘ridan to‘g‘ri kuzatib turdik. Yakunda esa men ham g‘oliblar safidan joy oldim.

Gapning ochig‘i, ilgari faqat nufuzli musobaqalar g‘olibi bo‘lgan sportchilargagina havas qilardik. Ilm-fandagi yutuqlarga ham shunday e’tibor va rag‘bat berilarmikan deb o‘ylardik. Mana, shunday kunlarga ham yetdik, biz o‘z kasbidan baxt topgan ustozlarmiz.

Ilk bor o‘tkazilgan bu shaffof tanlov barcha o‘qituvchilar o‘z ustida ishlashi uchun juda katta turtki, men uchun esa katta saboq va tajriba maktabi bo‘ldi. Negaki, tanlov shartlariga tayyorlanish mobaynida hali o‘rganishimiz kerak bo‘lgan ilmlar va bajarishimiz lozim bo‘lgan ulkan vazifalar ko‘pligi yaqqol ko‘rinib qoldi.

O‘QITUVCHINING MEHNATI QADRLANADIGAN YURTDA YASHAYOTGANIMDAN BAXTIYORMAN



Dilshodabonu ABDUQODIROVA, Mirobod tumanidagi 263-maktabning o‘zbek tili o‘qituvchisi:

— Inson bir narsani chin yurakdan xohlasa, unga nafaqat atrofidagi insonlar, balki butun koinot yordam beradi deganlari rost ekan. Menga “Yil o‘qituvchisi” bo‘lishimda chindan ham butun koinot yordam berdi desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Oldimga aniq maqsad qo‘ydim va kunu tun shu maqsad yo‘lida tinmay izlandim. Albatta, faqatgina qisqa muddatda erishilgan yutuqlar bilan “Yil o‘qituvchisi” bo‘lib qolmaysiz. Faoliyatingizning ilk kunlaridanoq kasbga muhabbat, bolalarning qalbiga topilgan yo‘l hamda shuning ortidan kelgan hurmat va e’tibor keyingi harakatlaringizga mustahkam poydevor bo‘ladi.

Ikki yil avval o‘qituvchilar bayrami arafasida Prezidentimiz “Yil o‘qituvchisi” tanlovi g‘oliblariga endi uy-joy berilishi haqida aytganida, to‘g‘risi, juda hayajonlanib ketgan edim. Chunki biz, o‘qituvchilarga avvallari bunday katta imkoniyat berilganini hech qachon eshitmagandik. Davlatimiz rahbari aytdimi, demak, bu albatta amalga oshadi degan ezgu niyat bilan o‘sha kundanoq o‘zimga talabchanlikni yanada oshirdim. Hatto kuniga 20 soatlab o‘z ustimda tinimsiz ishlagan kunlarim bo‘ldi. Shuning uchun g‘oliblikni qo‘lga kiritganimda quvonch ko‘z yoshlarimni to‘xtata olmadim. Bunday yuksak yutuqlarga haqiqatan ham juda katta mehnat va mashaqqat evaziga erishiladi. Ayni paytda o‘qituvchi mehnati bu qadar yuksak qadrlanadigan yurtda yashayotganimdan qanchalar baxtiyor ekanimni so‘z bilan ifodalab bera olmayman.

Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sohasiga katta sarmoya yo‘naltirilishi bejiz emas. Biz ham aynan shu yo‘ldan borayotganimiz kelajakda hali juda ko‘p yutuqlarni keltiradi. Zero, bugungi shiddatli globallashuv davrining o‘zi ham ta’lim sifati va tarbiya masalasini eng birinchi o‘ringa olib chiqmoqda. Bunday paytda o‘qituvchilardek katta armiyadan va ularning ilmiy salohiyatidan samarali foydalana olmagan har qanday davlat kelajagini boy beradi. Buni chuqur anglab yetgan hukumatimiz va xalqimiz biz, o‘qituvchilarga qancha e’tibor berilsa ham kam ekanini amalda e’tirof etmoqda. Bunday yuksak e’tibordan biz, albatta, ruhlanamiz va beqiyos kuch olamiz. Yangilangan “Yil o‘qituvchisi” tanlovining ilk g‘oliblari sifatida tarixda qolishning o‘zi qanday yaxshi! Bugun o‘z ustida tinmay ishlayotgan, o‘quvchisiga butun mehrini ulashib, uning kamoloti uchun borini berayotgan har bir ustoz bunday g‘oliblikka munosib. O‘ylaymanki, ushbu nufuzli tanlov eng kuchli va fidoyi ustozlarni yosh avlodga, qolaversa, butun xalqimizga keng tanitadi.

SHAFFOFLIK VA XOLISLIK — YUTUQLAR ASOSI



Sarvinoz ESHMURODOVA, Qo‘shrabot tumanidagi 51-maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi:

— Maktabimiz olis hududlarda joylashgan maktablar toifasiga kiradi. O‘quvchilarimiz maktabga 16 kilometr masofadan qatnab o‘qiydi. Manzilning yarmigacha avtobus qatnovi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, undan uyog‘iga piyoda yurishga to‘g‘ri keladi. Ammo shunday murakkab sharoitda ham o‘z kasbiga mehr berib ishlansa, albatta, kutilgan natijaga erishish mumkin. Shaffof baholash tizimi tufayli bugun ta’limdagi islohotlar faqat shahar markazida emas, balki eng chekka hududlarda ham birdek amalga oshayotganini men mazkur nufuzli tanlovda g‘olib bo‘lish orqali isbotladim.

Avvalo, tanlovga saralash jarayoni to‘g‘ridan to‘g‘ri attestatsiya ballariga bog‘lab qo‘yilgani barcha uchun juda qulay bo‘ldi. Attestatsiyadan o‘tishga ariza topshirgan har bir o‘qituvchi o‘z-o‘zidan “Yil o‘qituvchisi” tanloviga nomzod sifatida qabul qilinadi. Bu esa boshqa tanlovlardagi kabi ariza topshirish, turli hujjatlar yig‘ish va yana allanimalarni tayyorlash kabi ortiqcha yugur-yugurlarning oldini oladi.

Buning yana bir qulay tomoni shundaki, har bir bosqich o‘rtasida tayyorgarlik ko‘rish uchun 3-4 oy fursat beriladi. Balki shunday uzoq vaqt davomida yetarlicha tayyorgarlik ko‘rganimiz uchundir, tanlov davomida bizda hech qanday qiyinchilik kuzatilmadi. Aksincha, biz bu vaqtdan foydalanib, ko‘proq o‘z ustimizda ishladik va bilimimizni mustahkamladik. O‘qituvchini kasbiy jihatdan o‘stirish va jamiyatdagi obro‘sini oshirish uchun bundan ortiq imkoniyat bo‘lmasa kerak. Tanlov g‘oliblariga beriladigan katta miqdordagi pul mukofoti esa shuncha yillardan buyon hech bir ustozning na xayoliga kelgan, na tasavvuriga siqqan edi.

Eng muhimi, jarayonga adolatli yondashuv va xolislik mazkur tanlov nufuzini yanada oshirib yubordi. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, taqdimotga kirib chiqishimiz hamonoq olgan ballarimiz platformada yaqqol ko‘rinib turdi. Test topshirib bo‘lishimiz bilan natijalar darhol e’lon qilinmoqda. Haqiqiy shaffoflik mana shunda bo‘lsa kerak!

Aslini olganda, ishonch inson uchun eng oliy mukofotdir. Shu ma’noda, ustoz ahlini ulug‘laydigan, bedor tunlaridagi mehnatini qadrlaydigan hukumatimiz hamda ko‘p millatli xalqimiz ishonchini oqlash uchun biz bor kuch va ilmimizni bag‘ishlashga tayyormiz.

HAQIQIY PEDAGOGIK MAHORATNI HIS ETDIK



Jo‘rabek NURMATOV, Mirzacho‘l tumanidagi 1-maktabning o‘zbek tili o‘qituvchisi:

— O‘tmishda shunday og‘ir paytlar ham bo‘ldiki, erkak o‘qituvchilar maktabda ishlab oilasi va ro‘zg‘orini tebrata olmay qoldi. Oqibatda ularning aksariyati kasbini tashlab, boshqa daromadliroq ishlarga o‘tib ketishga majbur bo‘ldi. Bugunga kelib esa ta’limdagi vaziyat tubdan o‘zgardi. Erkak o‘qituvchilar yana maktablarga qayta boshladi. Ularning bir vakili sifatida men ham aynan mana shu ta’lim tizimidan o‘z rizqimni topdim. Bugungi kunda olayotgan maoshim oilamni tebratish uchun bemalol yetyapti. O‘tgan yil dekabr oyida men 70 foizli qo‘shimcha ustamaga erishgan edim. Joriy yilda esa ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikatni ham qo‘lga kiritdim. Hozir oyiga ming dollardan ziyod ish haqi olaman. Bundan tashqari, darsdan bo‘sh vaqtimda repetitorlik qilaman. Shu yilning bahorida 15 o‘quvchim o‘zbek tili va adabiyot fanidan milliy sertifikatni qo‘lga kiritib, barchasi talabalik baxtiga muyassar bo‘ldi.

Prezidentimiz o‘qituvchilarning maoshini 1000 dollardan oshiraman deganida nafaqat oddiy odamlar, balki soha vakillari orasida ham bunga ishonmaganlar bo‘lgan edi. Ammo buni qarangki, endilikda ba’zi ilg‘or o‘qituvchilar nafaqat 1000, balki 2000-3000 dollar miqdorida ham maosh olmoqda. Bugungi kunda pedagogning maqomini yuksaltirish bo‘yicha qabul qilingan qonun hujjatlari asosida keng ko‘lamli, tizimli ishlar qilinmoqda. Qaysiki o‘qituvchi o‘z ustida tinimsiz ishlab, kasbiy jihatdan rivojlanishga harakat qilsa, u munosib mukofotini ham olmoqda. Jumladan, buni “Yil o‘qituvchisi” tanlovi misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Men tanlovga nomzodim qo‘yilganini o‘tgan yilning dekabr oyida eshitgan edim va o‘sha kundan boshlab musobaqaga astoydil tayyorlandim. Barcha jarayonlar ko‘ngildagidek va adolatli o‘tgani sababli ishtirokchilarning hech birida norozilik kayfiyati bo‘lmadi. Ayniqsa, tanlovning uchinchi bosqichi nihoyatda ajoyib tarzda tashkil qilindi. Hakamlar hay’atiga respublikamizning ko‘zga ko‘ringan professorlari va akademiklari jalb qilinganidan hammamiz xursand bo‘ldik. Taqdimotlarimiz ular tomonidan xolis va haqqoniy baholandi. Bu tanlovda qatnashib, pedagogik mahoratimni sezilarli darajada oshirdim deb dadil ayta olaman.

ENDI ADOLATLI VA ISHONCHLI TANLOVIMIZ BOR



Hamida SHERMATOVA, Sariosiyo tumanidagi 2-umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi:

— Yakunlangan o‘quv yili men uchun juda omadli va qo‘shaloq yutuqlarga boy bo‘ldi. Aslida, hozirgi kunda kimki chin yurakdan mehnat qilsa, yutuqlar va imkoniyatlar uni izlab topmoqda. O‘z misolimda aytadigan bo‘lsam, birgina toifa sertifikatiga ega bo‘lganim menga qator imkoniyatlar eshigini ochdi. Maoshimga qo‘shimcha tarzda 70 foiz ustama to‘lanmoqda. Shuningdek, vazir ustamasi sohibiga aylandim. Bularning ortidan esa “Yil o‘qituvchisi” tanlovida qatnashish imkoniyatiga erishdim.

Ushbu tanlov birinchi marta uch bosqichda tashkil etildi va u boshidan oxirigacha faqat ochiqlik hamda shaffoflik tamoyillariga asoslandi. Bu shunchaki chiroyli gaplar emas, men bu adolatni amalda ko‘rdim. Tanlov davomida menga raqib bo‘lgan bir pedagog bilan ballarimiz tenglashib qoldi. Shunda tanlov tashkilotchilari alohida vaqt ajratib, bizdan qaytadan test oldi. Tanlov doirasida o‘tadigan darsimiz haqidagi xabar ham bizga bir kun avval, kechki payt ma’lum qilindi. Qur’a natijasiga ko‘ra, chekimga tumanimizdagi 68-maktabning tojik tilida ta’lim oladigan 7-sinfi tushdi. O‘quvchilarga “Mehrobdan chayon” romani bo‘yicha dars o‘tib berdim. Darsim xolis va adolatli baholandi.

Shuningdek, loyihalarim taqdimoti ham hakamlar hay’ati tomonidan iliq qabul qilindi. Jumladan, men aqlli QR-kodlarni ta’lim jarayoniga keng olib kirish tarafdoriman. Bu orqali o‘quvchi bahodan tashqari o‘sha aqlli QR-kodlarni skaner qilib, o‘z ruhiyatiga ijobiy ta’sir qiluvchi va ruhlantiruvchi fikrlar, iqtiboslarni o‘qishi mumkin bo‘ladi. Masalan, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida juda chiroyli va teran fikrlar berilgan. Bularni o‘quvchilarimga darsning tashkiliy qismida aytib borish bilan birga ularning yodida yaxshiroq qolishi uchun QR-kodlarga ham joylab bordim. Natija kutilganidan ham yaxshi bo‘ldi, o‘quvchilar ularni juda katta qiziqish bilan o‘qimoqda.

Bundan tashqari, bitiruvchi sinf o‘quvchilari o‘rtasida ko‘ngillilar guruhini tashkil etishni taklif qildim. Bu ko‘ngillilar guruhi o‘quv yili davomida maxsus kiyimlarda obodonlashtirish ishlariga, keksalar holidan xabar olishga hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlariga ko‘mak berishga jalb qilinadi. Shuningdek, eng yaxshi va kuchli jamoa maktab ma’muriyati hamda o‘qituvchilar homiyligi asosida til sertifikatlariga bepul tayyorlanishi uchun vaucherlar joriy qilish kerakligi haqidagi fikrimni ham bildirdim.

To‘g‘risini aytsam, ilgari har qancha harakat qilmang, bunaqangi takliflar unchalik inobatga olinmas edi. Mehnatingiz yuzaga chiqishi juda qiyin bo‘lib, tanish-bilishchilik soyasida ko‘rinmay qolib ketardingiz. Xayriyatki, endi o‘z kuchimiz va mehnatimiz bilan o‘sa olyapmiz, erishayotgan yutuqlarimiz halol. “Yil o‘qituvchisi” degan e’tirof men uchun nafaqat sharafli nom, balki mas’uliyatli burch hamdir. Bu yuksak e’tirof bizdan zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, yurtga sadoqatli hamda mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalashni talab qilmoqda. Ko‘z tegmasin, yurtimiz tinch, farovon, olayotgan maoshimiz ham yetarli. Shunday munosib sharoitda yonib ishlamaslik, o‘zimizdan-da kuchliroq shogirdlarni tarbiyalamaslik mumkinmi?!



G‘ALABAMIZ O‘ZIMIZ KABI SAFDOSHLAR KO‘PAYISHIGA XIZMAT QILADI



Sarvarbek RAHIMOV, Qo‘rg‘ontepa tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot o‘qituvchisi:

— “Yil o‘qituvchisi” tanlovi g‘olibi bo‘lgan ilk soniyalardanoq men o‘zimga bildirilgan ulkan ishonchni va zimmamga yuklatilgan juda katta mas’uliyatni his qildim. Zero, bu faqatgina shaxsiy yutug‘im emas. Bu jamiyat taraqqiyotining eng muhim tayanchi hisoblangan ustozlik kasbiga ko‘rsatilayotgan yuksak hurmat va beqiyos e’tiborning yorqin ifodasidir.

Shuningdek, g‘alabamda menga ilm bergan ustozlarimning mashaqqatli mehnati, yelkadosh bo‘lgan hamkasblarimning ishonchi, eng muhimi, o‘z orzu-umidlari bilan bizga kuch bag‘ishlab kelayotgan aziz shogirdlarimning katta hissasi bor. Shuning uchun hozir g‘alaba nashidasini surishdan ko‘ra ko‘proq ertangi kun, oldindagi zabt etilishi lozim bo‘lgan yana ko‘plab marralar va yangi vazifalar haqida o‘ylayapman.

Biz shunday baxtli pedagoglarmizki, aynan o‘qituvchiga munosabat o‘zgarib, jamiyatdagi mavqei va qadr-qimmati yuksalayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Axir bunday yorug‘ kunlarga yeta olmaganlar qancha! O‘zimning volidam ham o‘qituvchi bo‘lib o‘tgan, afsuski, ular bu ulkan yutug‘imni ham, oddiy o‘qituvchiga uy beriladigan bunday yorug‘ kunlarni ham ko‘ra olmadi. Biroq men onajonimning kasbini sharaf bilan davom ettirib, hech qachon izlanishdan va yangiliklarga intilishdan to‘xtamayman. Eng muhimi, jonajon Vatanimizga munosib avlodni tarbiyalash, avvalo, men kabi ustozlarning muqaddas vazifasi ekanini har on his qilib yashayman. Biz shunday barkamol avlodni tarbiyalashimiz kerakki, ularning egallagan bilimi yurt taraqqiyotiga, teran tafakkuri jamiyat yangilanishiga, ezgu maqsadlari esa yangi O‘zbekiston kelajagiga xizmat qilsin.

Qariyb 20 yildan buyon ta’lim tizimi ichida ekanman, 10 dan ziyod shogirdim o‘zim kabi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi bo‘lganidan cheksiz faxrlanaman. O‘quvchilarim turli fan olimpiadalarida faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritganida bu yo‘lda chekkan barcha mashaqqatlarim va muammolarim bir zumda esdan chiqib ketadi. Men hamisha ularning erishayotgan yutuqlaridan kuch olaman. Shu o‘rinda yana bir fikrni aytishni istardim: farzandlarimiz ham bugun dunyodagi eng baxtiyor bolalardir. O‘quvchilik davrimizda hozirgidek Prezident maktablari yoki turli yo‘nalishlarga ixtisoslashtirilgan zamonaviy maktablar bo‘lmagan. Bugungi kunda ularga yaratilgan bunday sharoitlarga butun dunyo bolalari havas qilsa arziydi. Ularning yaxshi o‘qib olim bo‘lishi yoki o‘zi istagan sohani mukammal egallashi uchun barcha shart-sharoit muhayyo qilingan. Biz ana shunday umidli qorako‘zlarning yorqin kelajagi uchun tinmay izlanyapmiz hamda ishlayapmiz. Bundan buyon ham bor bilimim, hayotiy tajribam va kuch-g‘ayratimni yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga hamda jonajon Vatanim taraqqiyotiga bag‘ishlayman.

* * *

G‘oliblarning qay biri bilan suhbatda bo‘lmaylik, ular, avvalo, ta’lim tizimida bunday adolatli tanlov tashkil etilganini hamda bu holat soha vakillari, ayniqsa, yoshlar uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berishini ishonch bilan ta’kidladi. Chindan ham bunday ezgu ishlar sohaga endigina kirib kelayotgan yoxud kirish istagida bo‘lgan ko‘plab yoshlarning qalbiga yorug‘lik va umid bag‘ishlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, har ikki yilda ta’limda erishilgan ulkan yutuqlarimizning yorqin timsoli o‘laroq tarix sahifalariga zarhal harflar bilan yozilajak yangi “Yil o‘qituvchilari”ni kashf etishimizga beminnat xizmat qiladi.

Munojat MO‘MINOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Vatanni o‘chirib bo‘lmaslikka iymon keltirgan o‘sha mashg‘ulot xotiramda umrbod saqlanib qolgan.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

“VATANNI O‘CHIRIB BO‘LMAYDI, BOLAM...”

Esse

Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, psixolog aytgan shartlarning barchasi bajarildi. Ishtirokchilar go‘yo cheksiz koinotda hech kimsiz, hech narsasiz, umidsiz va yashashga bo‘lgan istaksiz qolgandek edi go‘yo. So‘ng ko‘zlar so‘nggi bor bir daqiqaga yumildi va tasavvurdagi mana shu holat butun vujud bilan his qilina boshlandi. Ular o‘sha lahzada hayoti davomidagi eng qo‘rqinchli va azobli tasavvur bilan yuzma-yuz kelgandir, balki? Ehtimol, shunday.



— Ishoning, siz dunyodagi eng baxtli insonsiz. Ona Vataningiz taftini his qilib yashayapsiz. Oilangiz, yaqin insonlaringiz doimo yoningizda, yaxshi ko‘rgan ishingiz bor, sog‘lig‘ingizda muammongiz yo‘q. Faqat buni yurak-yurakdan his qilishingiz kerak edi. Ularni asrang, qadriga yeting.

Boshlanishi 1-betda

Harbiy shaharchadagi madaniyat saroyiga kirib borar ekanmiz, bizni zalda jam bo‘lgan Vatan posbonlari va xizmatchilar o‘rinlaridan turgan holda kutib oldi. Sahna o‘rtasida mehmonlar uchun alohida joy hozirlanib turar, harbiy qism boshlig‘i qo‘yarda-qo‘ymay hammamizni o‘sha yerga taklif qildi.

Yaxshilab o‘rnashib olganimizdan keyin sheriklarimiz navbati bilan so‘zga chiqa boshladi. Vatan, ozodlik, istiqlol qadri va shunga yaqin mavzular atrofida kechayotgan gurung bir xil maromda davom etyapti. Uchinchi kishi berilib ma’ruza o‘qiyotganida “Qani, o‘zi kimdir eshityaptimi?” degan o‘y bilan sekin zaldagilarga nazar tashlay boshladim va tasodifan Behro‘zni ko‘rib qoldim. Ha, bu aniq o‘sha. Sira o‘zgarmabdi. Faqat nigohlari yanada teranlashgan, butun diqqati bilan minbardagi taniqli madaniyat vakilining gaplariga quloq osib turibdi. Yelkasidagi yulduzlari esa yiriklashibdi. Men oxirgi marta harbiy jurnalist sifatida bu yerga kelganimda u leytenant edi...

* * *

Dekabrning achchiq sovug‘i qo‘sha-qo‘sha kiyimimiz ichidagi badanni teshib o‘tgudek edi. Marhum qiziqchi Hojiboy Tojiboyev bir tomning ustidan ikkinchi tomga sakrab o‘tayotgan mushuk kunning sovuqligidan o‘rtada muzlab qoladi deb mana shu qahratonni aytgan bo‘lsa kerak. Bu yerda yashayotgan mahalliy aholiga, boshqa viloyatlardan kelib xizmat qilayotgan harbiylarimizga qoraqalpoqcha qilib, “Rahmet”, deging keladi. Shubhasiz, yozi jazirama, qishi ayozli bu maskanda ularni yagona narsa tayanch nuqtasi kabi tutib turadi: Vatan tuyg‘usi...

Reja bo‘yicha harbiy qismlarda joriy etilgan harbiy psixologlar faoliyati bilan tanishishimiz, ular haqida lavha yoki ocherk tayyorlashimiz kerak. Harbiy qismning harbiy psixologi leytenant Behro‘z Murodov bizni mashg‘ulot xonasi tomon yetakladi. Kirsak, xonada harbiy qismning bir guruh ishchi-xizmatchilari va harbiylar o‘tiribdi. Ko‘rinib turganidek, ular ichidan kimdir o‘z xohishi bilan kelgan, yana kimdir esa istagidan tashqari. Buni qoraqalpoqlarga xos tarzda ro‘y-rost bildirganlari ham bo‘ldi. “Nima, biz jinnimizmi?” deb o‘ylashgan-da. Harbiy insonshunosimiz esa bu narsalarga parvo ham qilmay, o‘z ishiga kirishib ketdi. “Odam ham shunday beta’sir bo‘ladimi-yey”, deb yuboradi kishi.

Behro‘z avvaliga yig‘ilganlarning ismi va ismlari tarixi bilan qiziqdi.

— Mening ismim Muhabbat. Otimni rahmatli buvim qo‘ygan ekan, — deya gap boshladi o‘zi aytganidek Muhabbat opa. — Buvimning aytishicha, ota-onam bir-birini yaxshi tanimay, kattalarning xohishiga ko‘ra turmush qurishgan. Men tug‘ilganimdan keyin ular o‘rtasida muhabbat paydo bo‘lsin deb ismimni shunday qo‘yishgan.

Xonada yengil kulgi ko‘tarildi va qolganlar ham birin-ketin ismlari tarixini so‘zlab berdi. Shundan so‘ng mashg‘ulot boshlandi. Leytenant Behro‘z Murodov bugungi mashg‘ulotning nomini aytdi: “Moychechak”. U qatnashuvchilarga bittadan oq qog‘oz bilan ruchka tarqatib chiqdi. Psixolog o‘z ishining ustasi ekani, qalb qo‘rida haliyam saqlanib qolgan beg‘uborlik borligi kimlardir istar-istamas mashg‘ulot shartlarini bajarishga kirishayotganida u o‘zini xuddi hech narsani ko‘rmayotgandek, sezmayotgandek tutishida ko‘rinardi. Biz esa xonaning eshik tomondagi burchagida jimlik saqlagan holda kuzatib o‘tiribmiz.

— Qo‘lingizdagi oq qog‘ozga moychechakning rasmini chizing. Uning guli sakkiz banddan iborat bo‘lsin, — dedi birinchi qadamni tushuntirishga kirishgan Behro‘z. — Qani, chizgan bo‘lsak, hammamiz ko‘rsatamiz.

Erinibgina qog‘oz ko‘targan qo‘llar sekin tushirildi. Psixolog hammaga qarab chiqdi-da, ulardan bir daqiqaga ko‘zlarini yumishlarini iltimos qildi.

— Ana endi, — davom etdi u, — mana shu sakkizta bandning har biriga alohida-alohida qilib o‘zimiz uchun eng aziz va qadrli bo‘lgan narsalarimizni yozib chiqamiz.

— Mening aziz narsalarim ko‘p-da, nima qilay? — ishtirokchilar ichidan kimdir savol beradi.

— Umumiylashtirsangiz ham bo‘ladi, — Behro‘z muloyimlik bilan javob qaytardi.

Mashg‘ulotni diqqat bilan kuzatishda davom etamiz. Hamma yozib bo‘lgach, ko‘zlar yana bir daqiqaga yumildi. Qog‘ozga tushirilgan qadrlilar tasavvurda jonlandi.

Behro‘z mashg‘ulotning navbatdagi shartini aytganida, ko‘pchilik e’tiroz bildirdi. U dediki:

— Mana shu sakkizta banddan ikkitasini o‘chiramiz...

Ishtirokchilarning e’tirozida jon bor. Axir bu bandlar ichiga ular farzandlari, ota-onasi, turmush o‘rtog‘i, sog‘lig‘i, g‘ururi, sevimli ishi va har qanday vaziyatda ham har qanday yo‘l bilan asrab qolishga arzigulik “boylik”larini yozgan edi.

— Men bular ichidan hech birini o‘chirolmayman, — deydi Jalg‘as og‘a.

— Iltimos, mashg‘ulot sharti shunday, o‘chiramiz, — dedi Behro‘z bosiqlik bilan.

Bir ishtirokchi titragan qo‘lidagi ruchka bilan ikkita banddagi yozuvlarni o‘chirdi-yu, shu onning o‘zidayoq ulardan ayrilgandek izillab yig‘lab yubordi. Boshqalarning ham ko‘ngli buzildi. Mashg‘ulot shu zaylda qiyinlashib boryapti. Sokin xonada qo‘ldan tushib ketgan ruchkaning partaga va polga tekkanidagi ovozi eshitiladi, xolos.

...Ishtirokchilarda oxirgi ikkita band qolgan. Bo‘lib ham eng qadrli, suyumli va azizlari. Behro‘z esa sovuqqonlik bilan ularni ham o‘chirish kerakligini aytib turibdi. Qatnashuvchilarning navbatdagi e’tirozlari ham qanoatlantirilmadi.

— Mening ota-onam o‘tib ketgan. Ular hozir shu tuproqda yotibdi, — mahzun ohangda gapirayotgan bu ayolning ismi Zulfiya opa. — Shuning uchun boshda bandlarning biriga “Vatan” deb yozgan edim. Vatanni o‘chirib bo‘lmaydi, bolam...

Shu paytgacha o‘z kasbining ustasi ekanini ko‘rsatib kelgan leytenant Murodov bir lahza titrab ketdi-yu, hissiyotga berilsa, mashg‘ulot barbod bo‘lishini o‘ylab, o‘zini yig‘ib oldi.

— Bunday ishni buyurmagan bo‘lardim, ammo mashg‘ulotning sharti shu, opa, — u o‘ta og‘ir va bosiqlik bilan gapirardi. — Tanlovni o‘zingizga qoldiraman...

Boshda ko‘zi yoshlangan opa yana diqqat markazimizda. “Bolalarimdan qanday voz kechaman axir?”.

Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, psixolog aytgan shartlarning barchasi bajarildi. Ishtirokchilar go‘yo cheksiz koinotda hech kimsiz, hech narsasiz, umidsiz va yashashga bo‘lgan istaksiz qolgandek edi go‘yo. So‘ng ko‘zlar so‘nggi bor bir daqiqaga yumildi va tasavvurdagi mana shu holat butun vujud bilan his qilina boshlandi. Ular o‘sha lahzada hayoti davomidagi eng qo‘rqinchli va azobli tasavvur bilan yuzma-yuz kelgandir, balki? Ehtimol, shunday.

Mashg‘ulotning ikkinchi bosqichi boshlandi. Endi ular bandlardagi yozuvlarni ikkitadan qayta tiklab chiqishga kirishdi. Yuzlaridagi quvonchni ko‘rsangiz! Yo‘qotgan narsalarini bir-bir topishyapti-da. Nihoyat azizlar nomi bitilgan to‘tiyo yozuvlar to‘la-to‘kis tiklandi. Behro‘z esa ularga qarab turib:

— Ishoning, siz dunyodagi eng baxtli insonsiz. Ona Vataningiz taftini his qilib yashayapsiz. Oilangiz, yaqin insonlaringiz doimo yoningizda, yaxshi ko‘rgan ishingiz bor, sog‘lig‘ingizda muammongiz yo‘q. Faqat buni yurak-yurakdan his qilishingiz kerak edi. Ularni asrang, qadriga yeting. Ming afsuski, hayot bugungi mashg‘ulotimiz emas. Ming chiranmaylik, yo‘qotgan narsalarimiz qaytib kelmaydi, — dedi.

Mashg‘ulot avvalida ishtirok etishni istamagan kishilar psixologga eng birinchi bo‘lib rahmat aytdi. Biz ham Behro‘zga qoraqalpoqcha qilib, “Rahmet”, degan edik o‘shanda.

* * *

Miriqib ma’ruza tinglayotgan Behro‘zga qarayman-u, o‘sha voqealar xayolimda qayta jonlanadi. Shu payt so‘z navbati menga kelib, minbarga taklif qilib qolishdi. O‘shanda nimalar haqida gapirganim hozir unchalik yodimda yo‘q, lekin Vatanni o‘chirib bo‘lmaslikka iymon keltirgan o‘sha mashg‘ulot xotiramda umrbod saqlanib qolgan.

Islomjon QO‘CHQOROV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir

“Atlas bayrami” festivali

HUNARMANDLAR BIR MAQSAD YO‘LIDA BIRLASHDI







Sherzod QORABOYEV olgan suratlar.

Marg‘ilon shahridagi Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasi mezbonlik qilgan “Atlas bayrami” VII xalqaro festivali bo‘lib o‘tdi. UNESCO shafeligida Farg‘ona viloyati hokimligi, Amaliy san’at birlashmasi hamda “Hunarmand” uyushmasi hamkorligida tashkil etilgan festival barcha hunarmandlarni bir maqsad yo‘lida birlashtirdi. Unda 21 ta davlatdan tashrif buyurgan 66 xorijiy mehmon hamda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan 100 dan ortiq mahalliy usta sara hunarmandlik ishlarini namoyish qildi.

— Xalqaro hunarmandlik festivalining asosiy maqsadi nomoddiy madaniy merosni, xususan, atlas va adras tayyorlash an’analarini asrab-avaylash va rivojlantirish hamda hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlashdir, — deydi Respublika “Hunarmand” uyushmasi raisi Rasuljon Mirzaahmedov. — Ushbu festival dastlab milliy tashabbus sifatida boshlangan edi. Bugunga kelib, u xalqaro, global miqyosdagi madaniyatlar va ijodkorlar o‘rtasida tajriba almashish maydoniga aylandi. Chunki madaniy meros faqat muzey va kolleksiyalardagina saqlanib qolmasligi kerak. Bugungi festival Sharq va G‘arb ijodkorlarini bir maqsad yo‘lida birlashtirib, o‘ziga xos madaniy muloqot va tajriba almashish maktabini yaratdi.

Dastur doirasida “Made in Uzbekistan” ko‘rgazmasi, xalq sayillari — hunarmandlik yarmarkasi va xalq tomoshalari, xalqaro konferensiya, shuningdek, an’anaviy to‘qimachilik va gilamdo‘zlik bo‘yicha mahorat darslari, innovatsion dizayn va modalar namoyishi bo‘lib o‘tdi. Mahorat darslari davomida turli o‘simliklar, ularning ildizlari va mineral manbalardan tabiiy bo‘yoqlar ajratib olish texnologiyasi bosqichma-bosqich taqdim etildi. Festival dasturining yana bir yorqin voqeasi innovatsion dizayn yo‘nalishida tashkil etilgan modalar namoyishi bo‘ldi. Unda Marg‘ilonning mashhur atlas va adras matolari hamda milliy shoyi namunalari zamonaviy, kreativ bichimlar va mualliflik yechimlari bilan uyg‘unlashgan liboslarda o‘z ifodasini topdi.

— Oilamiz uch asrdan buyon maxsus naqshli qoliplar yordamida matoga qo‘lda bo‘yoq bosish san’ati bilan shug‘ullanib keladi, — deydi hindistonlik hunarmand Santosh Kumar Dhanopiya. — Bu an’anaviy milliy hunarmandlik turidir. Hindiston hukumati ko‘magida dunyoning 32 mamlakatida ushbu hunar bo‘yicha amaliy ko‘rgazmalar o‘tkazdik. Asosiy yo‘nalishlarim boburiylar davriga oid, shuningdek, miniatyura va an’anaviy uslubdagi qolipli bosma naqshlar tayyorlashdan iborat. Festivalda Hindiston hunarmandligining o‘ziga xos jihatlarini, rang-tasvirlarini ko‘rsatishga harakat qildim. O‘zbekistonga, xususan, Farg‘onaga ilk bor kelishim. Yurtingiz juda go‘zal, ozoda, xalqi esa mehmondo‘st ekan. Bu fayzli yurtga, albatta, yana kelaman.

— Bunday nufuzli festivalda xalqlarning zavq-shavqi, yaratuvchanlik xislatlarini ko‘rib yanada ruhlandim, — deydi qirg‘izistonlik hunarmand Gulmira Akmatova. — Qirg‘iz xalqida qo‘y boqish qadimdan an’ana bo‘lib kelgani uchun junni qayta ishlab, undan turli buyumlar tayyorlashga qiziqib qolganman. Bugungi kunda “Mountain Cedar Woolens” brendi ostida faoliyat yuritaman. Asosan, tabiiy qo‘y junlarini qo‘lda yigirib, ip va bo‘yoqlar yordamida tayyor kiyimlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlaymiz. O‘zbek va qirg‘iz hunarmandligi o‘rtasida o‘zaro o‘xshash jihatlar juda ko‘p. Tabiiy matolar, xalqlarimizning hayot tarziga monand naqshlar bir-biriga hamohang.

— “Atlas bayrami” festivalida ishtirok etib, juda olamshumul taassurot oldim, — deydi qozog‘istonlik hunarmand Zamzagul Belgeboyeva. — Bu yerga kelib, o‘zbek xalqining mato, rang va naqshlarga bo‘lgan munosabati naqadar nozik va teran ekanini yanada yaqinroq his qildim. Atlas va adrasning har bir naqshida tarix, milliy ruh va ulkan mehnat mujassam. O‘zim quroqchilik, petchvork va art-kvilt yo‘nalishida ijod qilaman. Biz ham matolar orqali milliy madaniyatimizni asrashga va uni zamonaviy shaklda namoyon etishga harakat qilamiz. Shu jihatdan olib qaraganda, o‘zbek atlas va adraslarining quroq san’ati bilan uyg‘unligi men uchun juda qiziqarli bo‘ldi. Marg‘ilonda atlas va adraslarning ranglari, naqshlari va qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rib, quroq san’ati bilan yana qanday yangi tajribalar qilish mumkinligi haqida ko‘plab fikrlar paydo bo‘ldi.

— O‘zbekistonda tashkil etilgan bunday nufuzli festivalda birinchi marotaba ishtirok etyapman, — deydi eronlik hunarmand Majid Zamoniy. — Bu, avvalo, tajriba almashish va mahalliy hunarmandlar bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Festival dasturi biz kutganimizdan-da mazmunli, amaliy uchrashuv va mashg‘ulotlarga boy bo‘ldi. Marg‘ilondagi ko‘plab mahoratli hunarmandlar bilan tanishib, o‘zaro aloqalar o‘rnatdik. Umid qilamanki, bu muloqotlar kelgusida birgalikda ishlash va yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Sayil maydonida askiya xalq og‘zaki ijodining nozik va betakror namunasi sifatida tomoshabinlarga xush kayfiyat ulashgan bo‘lsa, dorbozlarning mahoratga yo‘g‘rilgan chiqishlari “Atlas bayrami”ni xalqning o‘zligini, ijodkorligi va boy madaniy merosini namoyon etuvchi katta sayilga aylantirib yubordi. Mohir to‘quvchi va tikuvchilar turli nominatsiyalar doirasida rag‘batlantirildi. Xalq sayillari esa bayramga o‘zgacha ko‘tarinkilik bag‘ishladi. Hunarmandlik yarmarkasida milliy san’atning betakror namunalari namoyish etildi hamda mahorat darslari o‘tkazildi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy